NAZAROV XOLMUROD ABDUJAFFOROVICH

# CHOLG'U SOZLARINI O'RGANISH



TOSHKENT – 2023

Kitob quyidagi ko'rsatilgan muddatda topshirilishi shart

Oldingi foydalanishlar miqdori___________

31769
o'rganish

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROV XOLMUROD ABDUJAFFOROVICH

# CHOLG'U SOZLARINI O'RGANISH

60211400-VOKAL SAN'ATI: (AN'ANAVIY XONANDALIK)
ta'lim yo'nalishi uchun

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent 2023

UO`S: 451.315.05
KBK: 85.315
N-15

**Nazarov X. A. Cholg'u sozlarini o'rganish / O'quv qo'llanma / «Fan ziyosi» nashriyoti Toshkent 2023 142 b.**

Mazkur o'quv qo'llanmada "Cholg'u sozlarini o'rganish" fani bo'yicha nazariy ma'lumotlar berilgan. O'quv qo'llanmada vokal san'ati yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun qashqar rubobi cholg'usining qisqacha tarixi hamda cholg'uda ijro ko'nikmalarini shakllantirish to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, qashqar rubobi cholg'usi uchun mo'ljallangan bir necha asarlar kiritilgan.

O'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining vokal san'ati yo'nalishida "Cholg'u sozlarini o'rganish" fanidan saboq olayotgan talabalari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, ushbu qo'llanmadan san'at va madaniyat yo'nalishidagi bolalar musiqa va san'at maktablarining o'quvchilari hamda barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

В этом учебном пособии представлена теоретическая информация по предмету «Изучение музыкальных инструментах». Учебное пособии содержит краткую историю инструмента кашкарского рубаба для студентов, изучающих вокальное искусство, а также сведения по формированию исполнительских навыков на инструменте, а также инструменте кашкарского рубаба, в него включены несколько произведений, предназначенных для исполнения.

Учебное пособие предназначено для студентов высших учебных заведений, обучающихся вокальному искусству. Также данное пособие может быть использовано учащимися детских музыкальных и художественных школ по направлению искусство и культура, а также всеми заинтересованными лицами.

This tutorial provides theoretical information on the subject of "Learning Musical Instruments". The tutorial contains a brief history of the kashkar rubobi instrument for students studying vocal art, as well as information on the formation of performance skills on the instrument, as well as the kashkar rubobi instrument. several works intended for usi are included.

The tutorial is intended for students of higher educational institutions taking lessons in vocal art. Also, this manual can be used by students of children's music and art schools in the direction of art and culture, as well as all interested parties.

**Taqrizchilar:**

**Muzaffar Naimov** — Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti professori v.b. Phd

**Anvar To'raqulov** — Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti dekani, Phd

**Nota muharriri:**

**Orifjon Xakimov** — Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti o'qituvchisi

**ISBN: 978-9943-5942-8-9**

**© Nazarov X. A.**
**© «Fan ziyosi» nashriyoti 2023**

KIRISH

«Cholg'u sozlarini o'rganish» fanidan tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanma «Oliy ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulotlarni o'qitish texnologiyasi» o'quv qo'llanmasida bayon etilgan dars mashg'ulotlarida yangi texnologiyalarni qo'llash qonun-qoidalariga tayangan holda ishlab chiqilgan.

Qo'llanmada keltirilgan ta'lim texnologiyalarining har biri o'zida o'quv mashg'ulotini o'tkazish shart-sharoiti to'g'risida axborot materiallarini, pedagogik maqsad, vazifa va ko'zlangan natijalarni, o'quv mashg'ulotning rejasi, o'qitishning usul va vositalarini mujassamlashtirgan. Shuningdek, bu o'quv mashg'ulotining texnologik kartasini, ya'ni o'qituvchi va talabaning mazkur o'quv mashg'ulotida erishadigan maqsadi bo'yicha hamkorlikdagi faoliyatning bosqichma-bosqich ta'riflanishini ham o'z ichiga oladi. Kitob tarkibi kirish, ta'lim texnologiyasining kontseptual asoslari, har bir mavzu bo'yicha ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'qitish texnologiyasidan iborat. Ma'lumotlar maksimal darajada umumlashtirilgan va tartibga solingan. Ularni o'zlashtirish va yodda saqlab qolishni kuchaytirish uchun jadval va chizmalardan foydalanilgan.

Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayoniga o'qitishning yangi, zamonaviy usul va vositalari kirib kelmoqda va samarali foydalanilmoqda. Jumladan, Termiz davlat universitetida ham innovatsion va zamonaviy pedagogik g'oyalar amalga oshirilmoqda: o'qituvchi bilim olishning yagona manbai bo'lib qolishi kerak emas, balki talabalar mustaqil ishlash jarayonining tashkilotchisi, maslahatchisi, o'quv jarayonining menejeri bo'lishi lozim. Ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish asosida aynan shu g'oyalar yotadi.

Mutaxassislik fanlari ichida Cholg'u sozlarini o'rganish fani alohida o'rin tutadi. Chunki har doim insonning hayoti musiqa bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va uning asosida ta'minlab kelingan.



DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 31769

## FANNING MAZMUNI

Fanni o‘qitishdan maqsad – musiqa ta’limi sohasidagi oliy ta’lim muassasalari talabalariga milliy cholg‘ularda ijrochilik mahorati, xalq sozandachilik merosi, ustozoda ijro uslublari, mumtoz kuylarning shaklan tuzilishi ustida ishlashning zamonaviy interfaol uslublarini o‘zlashtirish, shuningdek, ularning usul va kuy o‘lchovi, milliy bezaklarni o‘ziga xos ijro yo‘llarini mukammal shakllantirish va mustahkamlashni nazarda tutadi. Fan tizimida ijro qilish ko‘nikmalarini hosil qilish bilan bir qatorda xalq ijodi bilan tanishish, ularning magnit tasmalariga yozilgan ijrolarini, cholg‘uchilikda musiqiy-hududiy uslublarni o‘rganish va tahlil qilish ijodiy jarayonlarida kasbiy mahoratini shakllantirish fanning asosiy maqsad va vazifalarini belgilaydi.

Fanni o‘zlashtirishda kelib chiqadigan vazifalar – talabalar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Ushbu fan bo‘yicha talabalar mukammal ravishda milliy cholg‘ularda ijrochilik mahorati ustida ishlashning amaliy ijro jarayonlarini o‘zlashtirishning uslubiy ko‘nikmalarini o‘rganadi.

## FAN BO‘YICHA TALABALARNING BILIMI, KO‘NIKMA VA MALAKALARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

**Bilimlar:** Cholg‘u sozlarini o‘rganish fanida biror musiqiy asar tanlab olingandan so‘ng uni talabalar bilan birgalikda batafsil tahlil qilinadi. Asarning nomlanishi, muallif haqida ma’lumot, asar yozilgan tonallik, matnning mazmuni nimadan iboratligi, asarni asosan qanday uslubda ijro etilishi va boshqa jihatlar har tomonlama nazariy jihatdan puxta o‘zlashtirib olinadi. Mashg‘ulotlar “oddiydan murakkabga” tamoyili asosida tashkil qilinadi. Har bir dars oxirida uyga vazifa belgilanadi. Kelgusi darsni albatta uyga berilgan vazifani tekshirishdan boshlash mashg‘ulotlarning izchilligini ta’minlashda o‘zining samarasini beradi. Keyingi darslar davomida kuy bo‘laklari necha taktdan iboratligi, ular bir-biriga qanday bog‘langanligi, dinamik belgilar, kuyning asosiy mavzusi, kichik va katta avjlar va asarning qanday yakunlanishi hususida o‘qituvchi talabaga tushuntirib berishi kerak.

**Ko‘nikmalar**: Talaba sinfda asarni fortepiano jo‘rligida ijro etish jarayonida ham o‘zining ijrosini, ham fortepiano partiyasini bir vaqtning o‘zida tinglay olish ko‘nikmasini egallashi lozim. Shundagina ijro etilayotgan asar to‘laqonli bo‘lib, tinglovchiga tushunarli darajada yetib borishi mumkin.



Yosh cholg‘uchi-sozandalarning, ayniqsa qashqar rubob ijrochisining o‘ng va chap qo‘l ijro mahoratini oshirish uchun gammalar, etyudlar va turli mashqlar ustida muntazam ishlash katta ahamiyatga ega. Asosiy darsdan oldin boshlang‘ich davrda har kuni 30-60 daqiqa, keyinchalik esa 1-2 soat gamma va mashqlarni turli shtrixlarda, har xil dinamik belgilar bilan chalish ijro mahoratini rivojlantirishda katta foyda beradi.

Talabalarning ijro texnikasiga doir bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun o‘quv yilida ikki marta: kuzgi va bahorgi semestrda yakuniy nazorat o‘tkaziladi: Bolalar musiqa va san’at maktablarida ishlashda ta’lim metodlari va usullarini bilish. Bolalar musiqa va san’at maktablari tarbiya dasturi bilan ishlash. Axloq normalari.

## FANNING BOSHQA FANLAR BILAN BOG‘LIQLIGI, USLUBIY JIHATDAN UZVIYLIGI VA KETMA-KETLIGI

Vokal san’ati yo‘nalishi talabalari uchun “Cholg‘u sozlarini o‘rganish” fani mutaxassislik fani hisoblanib u olti semestrda o‘qitiladi. Dasturni amalga oshirish “Ansambl sinfi”, “Maqom yakka xonandaligi”, “Fortepiano”, “Xalq kuylarini notalashtirish”, “An’anaviy xonandaligini o‘qitish uslubiyoti”, “Sharq xalqlari musiqa tarixi”, “Xalq musiqa ijodiyoti”, “O‘zbek musiqasi tarixi” fanlariga bog‘lab olib boriladi. Ta’lim oluvchilarning nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quv materiallari turli usullarda taqdim etiladi. Ta’lim jarayonida o‘qitishning an’anaviy va interfaol usullaridan foydalanilganda ular izchil va ketma ketlikda qo‘llanilishi lozim, bunda ta’lim metodlari va texnologiyalari vazifasi hamda o‘quv materialining mazmunidan kelib chiqqan holda tanlanadi.

## FANNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN ZAMONAVIY AXBOROT VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarni qo‘llashda fanni o‘zlashtirish uchun omil bo‘ladigan zamonaviy axborot texnologiyalarning ahamiyati va o‘rni benihoyadir. O‘quv jarayonini sifatli tashkil etish maqsadida axborot texnologiyalardan foydalanish talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham muhim hisoblanadi.

Ta’lim metodlarini tanlashda har bir dars vazifasidan kelib chiqib yondoshish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun dars oqilona tashkil etilishi, pedagog tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishi o‘rganilib, ta’lim jarayonida faolligi muttasil ta’minlanishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib,

ularning mazmunini ochib berishda har bir uslubdan o‘z o‘rnida foydalanish, ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Fanni o‘qitishda “Cholg‘u sozlarini o‘rganish” fani uchun jihozlangan xona fortepiano, pult, stul, nota daftar, ruchka, qalam, o‘chirg‘ich, chizg‘ich, eshituv va yozuv texnika vositalari, og‘zaki, amaliy. O‘qituvchi o‘rganilayotgan asarning xususiyatidan kelib chiqib darsni o‘zi ijodiy belgilashi va yangiliklar kiritishi mumkin. Shuningdek, audio-, video-, kompyuter texnikasidan foydalaniladi.

## KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR (REQUIREMENTS FOR OBTAINING LOANS):

Fanga oid amaliy va nazariy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha amaliy, test yoki yozma ishni topshirish.

## TALABALAR BILIMINI KREDIT-BAHOLASH TIZIMI ASOSIDA NAZORAT QILISH JADVALI VA BAHOLASH MEZONLARI(ASSESSMENTS)

Cholg‘u sozlarini o‘rganish faniga ta’lim yo‘nalishida 30 soat amaliy mashg‘ulot va 30 soat mustaqil ta’lim ajratilgan. Universitet nizomi bo‘yicha bu 60 soat yuklama hajmiga 2 kredit beriladi. Hemis dasturidagi kredit baholash tizimidagi 100 ball, o‘zlashtirish chegarasi esa 60 foizdir. Joriy va oraliq nazoratida talaba jami 50 ball to‘plashi mumkin. Talaba yakuniy nazoratda esa 50 ball to‘playdi.

### JN mezoni:

**JN**: Talaba amaliy mashg‘ulot mavzu rejasiga tayyorlanib muhokamada qatnashsa, har bir mavzu uchun **0,53** ball berib boriladi, jami **8** ball to‘playdi. (**15** ta mavzu***0,53** ball=**7,95** ball, kreativ fikri bo‘lsa **0,05** ball beriladi). **1-15** mustaqil ish topshiriqlarining har biriga esa **0,8** baldan beriladi, jami **12** ball to‘playdi. (**15ta** mustaqil ish***0,8** ball=**12** ball). Talaba TMI topshiriqlarining **1-15** mavzularini **konspekt** shaklida taqdim etib boradi. Har bir mashg‘ulotidagi talabaning faoliyati **1,33** ballni tashkil qiladi. Demak, **15*1,33=19,95** Kreativ fikri uchun 0,05 ball jami **20ball**.



### JN ballar(20ball) konvertasiyasi

| baho | ball | o‘zlashtirish |
|---|---|---|
| “5” | 18-20 | 90-100% |
| “4” | 14-17 | 70-89,9% |
| **“3”** | **12-13** | **60-69,9%** |
| “2” | 11 | 0-59,9% |

### ON mezoni (30ball)

**ON**: Oraliq nazorati amaliy mashg‘uloti tugagandan so‘ng o‘tkaziladi. Oraliq nazoratida talabaga og‘zaki yoki amaliy mashg‘ulot savollari asosida 20 ball olishi mumkin. ON mustaqil ishi uchun talaba berilgan asarni chalib beradi. **Belgilangan muddatida taqdim qilinmagan mustaqil ishlar qabul qilinmaydi.** Modulda belgilangan mustaqil ta’lim va mustaqil ish uchun talaba **10 ball** to‘playdi. Talaba umumiy **30 ball** to‘playdi.

**ON ballar konvertasiyasi.**

| baho | ball | o‘zlashtirish |
|---|---|---|
| “5” | 27-30 | 90-100% |
| “4” | 21-26 | 70-89,9% |
| **“3”** | **18-20** | **60-69,9%** |
| “2” | 17 | 0-59,9% |

### YaN mezoni(50ball)

**YaN:** Yakuniy nazorat amaliy topshiriq shaklida o‘tkazilsa, talabaga beshta savoldan iborat variantlar taqdim etiladi. Ularning uchtasi mustaqil ta’limlarga tegishli savollar bo‘ladi. Har bir savolga to‘liq yozilgan javobi uchun 10 ball beriladi. Jami 50 ball).

### YAN ballr konvertasiyasi

| baho | ball | o‘zlashtirish |
|---|---|---|
| “5”baho | 45-50 | 90-100% |
| “4”baho | 35-44 | 70-89,9% |
| **“3”baho** | **30-34** | **60-69,9%** |
| “2”baho | 29 | 0-59,9% |

**1-Izoh:** O'ROO'MTVning 2018 yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrugi (OTM talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'grisidagi nizom) **1-jadvali** (baholashni "5" baholik shkaladan 100 ballik shakliga o'tkazish jadvali) **2- jadval** (Oliy ta'lim talabalar o'zlashtirishini baholash tizimlarini qiyosiy taqqoslash jadvali O'zbekiston tizimi)ga asosan konvertasiya qilinadi.

**2-izoh**: VMning 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli (OTM ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida) qarori **1-ilovasi** (OTM o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'grisida nizom) ning 1-bob 1-4 bandi, 4-bob 11-14 bandi, 6-bob 29-30-31 bandi,8-bob 41 bandiga muvofiq kredit beriladi.

## TALABALAR O'ZLASHTIRISHINI BAHOLASH TIZIMLARINI QIYOSIY TAQQOSLASH JADVALI

| **"5"baholik tizimi** | **Yevropa kredit transfer tizimi (ESTS-Europen Credit Transfer System)** | **"100" ballik shkala (%)** |
|---|---|---|
| "5"(a'lo) | "A" | 90 — 100 |
| "4"(yaxshi) | "B" | 70 — 89,9 |
| | "C" | |
| "3"(qoniqarli) | "D" | 60 — 69,9 |
| | "E" | |
| "2"(qoniqarsiz) | "FX" | 0 — 59,9 |
| | "F" | |



## 1-MASHG'ULOT: "CHOLG'U SOZLARINI O'RGANISH" FANIGA KIRISH

### Reja:

1. "Cholg'u sozlarini o'rganish" faniga kirish.
2. Vokal san'ati yo'nalishi talabalari uchun cholg'u ijrochiligini o'rganishning ahamiyati.

Cholg'u ijrochiligi san'ati qadim-qadimdan jamiyat hayotining ajralmas bo'lagi sifatida shakllanib kelgan. Cholg'u ijrochiligi insonni tarbiyalashda, ma'naviy yetuklikka yetishtirishda asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qilib kelgan. Bugungi musiqa ta'limining ham eng muhim maqsad va vazifalaridan biri talaba yoshlarda musiqiy savodxonlikni oshirish, ularni ma'naviy va ruhiy tarbiyalash, ularda Vatanga muhabbat hissini shakllantirish, o'z milliy musiqalarimiz, milliy an'analarimizni singdirishdan iborat. Ushbu vazifalar esa albatta malakali o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi esa ham nazariy ham amaliy jihatdan bilimli, iqtidorli, ijodkor mutaxassislarni tayyorlashdir.

Yurtboshimizning "Madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" PQ-112-qarorlari aynan shu poydevorni mustahkamlash to'g'risida. Bu qarorga ko'ra har bir maktab o'quvchisi kamida bitta milliy cholg'uda chalishi, dars o'tayotgan o'qituvchi esa kamida uchta cholg'uda ijro mahoratiga ega bo'lishi lozim. Bu cholg'ularni chalishni o'rganish uchun esa albatta musiqiy savodxonlik zarur. Maktabga ilk marotaba kelgan bolaga kitobni tez o'qib berish talab etilmaganidek, musiqani bilmagan bolani qo'liga ham biror-bir asbobni tutqazib chaldirish, undan xushnavo ijroni talab qilish noto'g'ri ishdir. Maktabga kelgan bolakaylarga avvalo "Alifbe" kitobida harflar tanishtiriladi so'ngra, harflarni sekin-sekin yozish o'rgatiladi. Musiqa darsida ham xuddi shunday. Musiqada atigi yettita harfi bo'lishiga qaramay, harflardan keyingi yoki oldingi tinish belgilar musiqa nazariyasi fanida o'tiladi. Vokal san'ati yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar bu fanni qanchalik yaxshi o'zlashtirsalar cholg'udagi ijroni ham o'rganish shuncha oson kechadi. Shu o'rinda yana savol tug'ilishi mumkin. Musiqa nazariyasi fanining cholg'u ijrochiligi bilan bog'liqligi nimada? Yuqorida aytib o'tilganidek bu fanda talaba birinchi bo'lib musiqadagi kalitlar, musiqa alifbosi bo'lgan yettita nota ya'ni, C (do), D (re), E (mi), F (fa), G (sol), A (lya), H (si) notalarni, musiqadagi barcha terminlarni, oktavalar, intervallar, ladlar va shu kabi kerakli bo'lgan musiqiy iboralarni o'rganadi.

Musiqiy cholg'ular turli xil oktavadagi turli xil notalarga sozlanadi. Cholg'uijrochisi esa o'z cholg'usini qaysi oktavadagi qaysi notaga sozlanishini yaxshi bilishi lozim. Chalayotgan cholg'usining ovoz diapazoni, ijro etayotgan asarining tonalligi, asarning muallifi kelib chiqish tarixi hammasini cholg'u ijrochisi bilishi lozim. Ushbu ma'lumotlarni esa nazariy fanlardan olish mumkin. Har doim nazariya va amaliyot yonma-yon yurgan.

Vokal san'ati yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "Cholg'u sozlarini o'rganish" fanida ham talabalarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda, ko'pincha cholg'u sozini boshidan boshlab o'rgatishga to'g'ri keladi. Shu sababli vokal san'ati yo'nalishi talabalariga cholg'u ijrochiligini o'rgatishda jiddiy yondoshgan holda mashg'ulotlarni olib borish taqozo etiladi.

Cholg'u ijrochiligi doimiy rivojlanib boradigan jarayon bo'lganligi sababli bugungi kunda talabga javob beradigan yanada mukammal, yangi izlanishlarni doimiy olib borish lozim. Yurtimizda cholg'u ijrochiligi ta'limi tizimida ko'plab qo'llanmalar amaliyotda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Vokal san'ati ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'jallangan "Cholg'u sozlarini o'rganish" fani xonanda va qo'shiqchilarni qo'shiq kuylash bilan birga cholg'u sozlarini ijro qilishdan ham xabardor bo'lish imkonini beradi. Cholg'u sozini mohir ijro qilib, qo'shiq kuylaganda tinglovchilarga o'zgacha zavq beradi. Shu sababli xonandalarning ham cholg'u ijrochiligidan xabardor bo'lishi aynan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. "Cholg'u sozlarini o'rganish" fani haqida fikringizni ayting.
2. Vokal san'ati yo'nalishi talabalari uchun milliy cholg'ular ijrochiligini o'rganish qanday ahamiyatga ega?



## 2- MASHG'ULOT: QASHQAR RUBOBI TARIXI

### Reja:

1. Qashqar rubobi cholg'usi haqida ma'lumot
2. Qashqar rubobining tuzilishi
3. Mediator

O'zbek musiqa san'ati juda boy va rang-barangdir. U qadimdan avloddan–avlodga og'zaki tarzda ustoz va shogird an'analari orqali o'tib, o'zbek xalqining boy musiqa madaniyatida salmoqli o'rin tutadi. Tasviriy sanat yodgorliklari cholg'u sozlarning qadim zamondanoq vujudga kelib xalq orasida keng tarqalganidan darak beradi. O'rta asr va undan keyingi davrda yaratilgan musiqa cholg'u sozlarning va ularda ijro etiladigan musiqiy asarlari haqida anchagina ma'lumot bor. Bu cholg'uning kelib chiqish tarixi to'g'risida turli manbalarda turlicha ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Al-Farobiy (X asr) o'z davrining musiqa asboblarini tavsiflar ekan, rubobda bir-biridan farq qiladigan ijroga erishish mumkinligini uning afzalliklaridan biri deb hisoblaydi. Darvesh Ali (XVIII asr) "Musiqa haqida risola" asarida musiqa asboblarining tuzilishini bayon qilar ekan, "Rubob torli musiqa asbobi. O'rta Osiyoda Alouddin Muhammad Xorazmshoh (1200-1220 yillar) davrida tarqaldi. Shu davrda Xorazmshoh saroyida tengi yo'q rubob chaluvchi usta Mahmud yashar edi. Rubobda beshta tor bo'lib, ulardan to'rttasi ipakdan va bittasi kumushdan edi",- deb yozadi.

Mamlakatimiz joylashgan hudud Buyuk Ipak Yo'lining chorrahasiga to'g'rikelganligi bu yerda turli madaniyatlar va san'atlar qorishuvini ta'minlagan. Ushbu hududda musiqa madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lgan cholg'u ijrochiligining ham rivojlanganligini, jahon musiqa madaniyatida juda keng qo'llanilayotgan zamonaviy cholg'ularning juda ko'p qismi biz yashab turgan hududdan tarqalib, keyinchalik boshqa xalqlar tomonidan yanada takomillashtirilib, ularning asosiy musiqa cholg'ulariga aylanganligini isbotlovchi dalillar bor.

Har bir xalqning o'ziga xos ommabop va sevimli musiqa cholg'ulari bo'ladi va bu cholg'ular mazkur xalqning mentalitetiga xos ohanglarni ifodalay olganligi uchun boshqa cholg'ularga qaraganda ko'proq o'rganiladi. Qashqar rubobining asli kelib chiqishi Sharqiy Turkiston (hozirgi Xitoyning Uyg'ur avtonom okrugi) ning Qashqar degan joyi nomi bilan bog'liq bo'lsa-da, o'zbek milliy cholg'ulari ichida eng keng tarqalgan va ommalashgan cholg'u hisoblanadi. Hozirda u bizning

sevimli cholg'ularimizdan biri, uning takomillashtirilishi va ijro uslublarining boyitilishi natijasida xalqimizning e'tiboriga sazovor bo'ldi, musiqa madaniyatimizda o'zbek xalqining eng ommabop cholg'ularidan biriga aylandi.

Musiqani endigina o'zlashtirayotganlarning ko'pchiligi shu cholg'udan foydalanishi ma'lum. Qashqar rubobi juda jarangdor va yoqimli sadoga ega bo'lib, nisbatan tez o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan cholg'ular qatoriga kiradi.

Musiqa cholg'ularining ommalashuvida alohida sozandalarning ham xizmatlari bo'ladi. Qashqar rubobining ommalashuvida Muhammadjon va Shavkat Mirzayevlar, Feoktist Vasilev, Ergash Shukrullayev, Ari Boboxonov, Sulaymon Taxalov, Qobil Usmonov, Tohir Rajabiy kabi bir qator cholg'uchilarning o'ziga xos o'rni bor.

Qashqar rubobi o'zining uzoq tarixi davomida shaklan o'zgarishlarga uchraganligi tabiiydir. Bu o'zgarishlar esa rubobni o'rgatish jarayoniga ham ma'lum darajada ta'sir qilgan. Bu holatlar umuman an'analarni, shuningdek o'rgatishdan keyingi davrlarda paydo bo'layotgan uslub, qoidalar va shakllarni tadqiq qilish vazifasini oldinga suradi. Qashqar rubobida chalishni o'rganishni astoydil niyat qilgan shogirdga cholg'u sirlarini o'zlashtirishda negiz hisoblanmish mukammal qoidalar majmuasi mavjud. Avvalo, qashqar rubobi sozida chalishga ishtiyoq-havas uyg'ongan, cholg'uni tovush qirralarini o'zicha ilg'aydigan, ya'ni boshqacha qilib aytganda "nishona" ko'rsatgan qobiliyatli bolani yoki o'spirinni ilgarilari otasi yoki yaqin qarindoshi ustoz oldiga yetaklab olib borgan. Ustozga ularning kelish maqsadi ayon bo'lgach, bo'lg'usi shogirdning jismoniy kamolotini hisobga oladi, qaysi kuylar va san'at asarlari bilan tanish ekanligini surishtiradi. Ustoz o'zaro suhbatdan so'ng bolaning qobiliyatini sinash maqsadida uning rubob pardalarini bosish orqali dastlabki tovushlarni hosil qilishini kuzatadi. Shundan keyin ustoz bolaning shogirdlikka loyiq ekanligini bildiradi.

Ustozning ma'naviy olamiga oshno bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy va san'at sohasiga doir barcha nozik didi va fazilatlarini tadrijiy ravishda o'ziga singdira boradi. Shu yo'sinda shogird o'zining musiqiy-nafosat olamini shakllantiradi. Ustozlar shogirdlari bilan dastlabki uchrashuvlarda rubob cholg'u sozidagi ijrochilik imkoniyatlari, cholg'ular orasidagi o'rni, ahamiyati, o'zining ustozlari haqida ma'lumotlar bergan. So'ngra mashg'ulotlar vaqti va tartibini belgilaganlar.

Qashqar rubob hozirgi kunda boshlang'ich, o'rta maxsus va oliy musiqiy ta'limda o'rganilmoqda. Unda ijro etiladigan asarlarning ham ko'lami tobora ortib, maxsus yozilgan asarlar ham cholg'uchilarning repertuaridan joy olmoqda. Shu bilan bir qatorda, qashqar rubobida ijro etuvchilar sonining yanada ortib borishi, yangidan-yangi qo'llanmalar va to'plamlar chop etilishini taqozo etmoqda.



**Qashqar rubobining tuzilishi**

**Qashqar rubobi** - rubob juda qadimiy cholg'u hisoblanadi. O'sha davr ruboblari hozirgi biz qo'llayotgan qashqar rubobi ko'rinishidan keskin farq qilgan, lekin negizi bir-biri bilan bog'liqdir. Qashqar rubobi torli cholg'u musiqa asbobi, mediator bilan chertib chalinadi. O'rta asrdan boshlab Sharq (Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyo) xalqlarida keng tarqalgan. Qashqar rubobining uzunligi 80-100 sm, cho'michsimon kosasi tut va boshqaqattiq daraxt g'o'lachalaridan o'yib yasaladi va ustiga teri qoplanadi. Dastasi uzun, uchi orqasiga qayrilgan bo'lib, kosadan boshlanadigan joyida qo'chqor shoxiga o'xshash 2 ta gajagi mavjud. Dastasidagi pardalari (19 tadan 24 tagacha, oldin ichakdan, hozir metalldan qilinadi.) xromatik tovush qatorni tashkil qiladi. Qashqar rubobining torlari, odatda, kvarta-kvinta oralig'ida sozlanadi. Diapazoni 3 oktavaga yaqin. Tovushi jarangdor.



1. Quloqlar.
2. Qashqar rubobining boshqismi.
3. Shayton xarrak.
4. Pardalar.
5. Dasta.
6. Teri
7. Birinchi tor.
8. Ikkinchi tor.
9. Uchinchi tor.
10. Xarrak.
11. Ilmoqlar.
12. Kosa.

**Mediator** (Mezrob)

Qashqar rubobi torlarini chertib ovoz chiqarish uchun ebonit kabi materiallardan mediator (mezrob) ishlatiladi. Mediator o‘ng qo‘lning bosh va ko‘rsatkich barmog‘i bilan qattiq siqmasdan ushlanadi, barmoqlar kaftga tegmasligi kerak.



**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. O‘zbekiston hududida ijrochilik san’atining paydo bo‘lishi haqida fikringizni ayting.
2. Qashqar rubobi cholg‘usi tarixi to‘g‘risida gapirib bering?
3. Qashqar rubobi cholg‘usi tuzilishi to‘g‘risida ma’lumot bering.
4. Qashqar rubobi cholg‘usi ijrochiligida mediatorning ahamiyati haqida gapiring?



## 3-MASHG‘ULOT:QASHQAR RUBOBNI TO‘G‘RI USHLASH VA IJRO ETISH YO‘LLARI

**Reja:**

1. Qashqar rubobini to‘g‘ri ushlash qoidalari.
2. Qashqar rubobini ijro etishdagi umumiy holat.
3. O‘ng va chap qo‘l holati.
4. Qashqar rubobini sozlash.

Qashqar rubobini chalishni o‘rganishga kirishgan kishiga rubobni plastmassadan yasalgan mediator bilan chalish tavsiya etiladi, chunki bunday mediator bilan chalganda ham tovush silliq va mayin eshitiladi. Keyinchalik ebonitdan yasalgan mediator bilan ijro etiladi, bu mediator bilan tovushni kuchli yoki kuchsiz chiqarish mumkin. Ebonitdan yasalgan mediatorning bo‘yi 1,5-2 sm eni 4-5 mm, qalinligi esa 0,8-1 mm bo‘ladi. Mediatorning bir uchi qirrali va silliq bo‘lishi kerak. Tovushlarning tekis va yoqimli chiqishi uchun mediatorni charxlash, silliqlash kerak. Qashqar rubobi torlarini mediator bilan chertganda o‘ng qo‘lning faqat panja qismi harakat qilishi lozim. Mediatorni yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga chertganda tovush bir xil tekis va silliq chiqishina erishish lozim. Qashqar rubobini chalishni o‘rganishdagi dastlabki mashg‘ulotlardanoq faqat kerakli torlarnigina chertib, tiniq va aniq tovush chiqarishga harakat qilish lozim. Mediatorni ushlab turgan o‘ng qo‘l rubob xarragidan 4-6 sm uzoqlikda bo‘lishi lozim, chunki mediatorni xarrakka yaqin tutib chertilsa, rubobning tovushi bo‘g‘iq, yoqimsiz chiqadi.





Qashqar rubobini chalishga kirishishdan oldin uni to‘g‘ri ushlashni o‘rganish kerak. Buning uchun quyidagi ko‘rsatmalarga amal qilish lozim: Rubob kosasini ko‘krakdan sal pastroqda, o‘ng qo‘lning bilagi orasida qattiq siqmasdan ushlash kerak. Rubob dastasini chap qo‘lning bosh va birinchi barmog‘i orasida erkin tutish lozim.



Rubob dastasi ushlangan paytda qo‘lning bosh barmog‘i ikkinchi barmoqning ro‘parasida turishi shart. Aks xolda uchinchi va to‘rtinchi barmoqlarning pardalari bosishi qiyinlashadi.

Rubobda kuy ijro qilinganda barmoqlar pardadan uzoqlashmasligi zarur. Barmoqlar baland ko‘tarilsa, tez templi musiqa asarlarini ijro qilish qiyin bo‘ladi. Rubob o‘rganishdagi dastlabki mashg‘ulotlarda qo‘llar tez charchab qolishi mumkin. Bunday holda qo‘llarni pastga tushirib, ularga biroz dam berish



kerak agar bu qoidaga rioya qilinsa, keyinchalik ijrochining qo‘llari charchamaydigan bo‘ladi.

Rubobda yakka ijro etganda tik turish va gavdani to‘g‘ri tutish lozim. Rubobning quloqlar o‘rnatilgan qismi ijrochining yelkasi bilan barobar turishi kerak. O‘zbek xalq cholg‘u asboblari orkestrida, ansamblda o‘tirib ijro etiladi. Bu vaqtda ijrochi stulga suyanmasdan o‘tirishi va uning chap oyog‘i bir oz oldinda turishi shart.

**Qashqar rubobini sozlash.**

Qashqar rubobi ijrochiligida soz juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, ijro etilayotgan asarning sifatli eshitilishi, ijrochining mahorati, eshitish qobiliyati, musiqaning ritmini his qilishi talab etiladi.

Rubobning birinchi juft tori Lya tovushiga moslab sozlanadi. Rubobning ikkinchi juft torini Mi tovushiga sozlash uchun bu torlar birinchi juft torlarning yettinchi pardasiga oktava holida moslanishi kerak bo‘ladi. Rubobning uchinchi tori ikki xil sozlanadi:

1. Kvarta (4) ga sozlamoqchi bo‘lsangiz, Si notasiga sozlash kerak. Bunda ikkinchi torni birinchi torga qanday moslangan bo‘lsa, uchinchi torni ham ikkinchi torga shunday moslab sozlanadi.

2. Uchinchi torni kvinta (5) ga sozlamoqchi bo‘lsangiz, u holda uni Lya notasiga sozlash kerak, ya’ni birinchi juft torning jarangiga bir oktava past qilib sozlash kerak bo‘ladi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Qashqar rubobida ijro qilishni o‘rganishda nimalarga e’tibor qaratish lozim?
2. Qashqar rubobini ijro qilishda ijro holati haqida ma’lumot bering.
3. Qashqar rubobini ijro etishda o‘ng va chap qo‘l holatini ko‘rsatib bering.
4. Qashqar rubobi cholg‘usini sozlashda nimalarga e’tibor berish kerak?



DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 31769

## 4- MASHG'ULOT: TOVUSH HOSIL QILISH VA OHANGDOSHLIK

**Reja:**

1. Cholg'u ijrochiligida tovush hosil qilish va ohangdoshlik.

2.Ijro shtrixlari xususida.

Barcha mizrobli cholg'ularda tovush hosil qilish uchun mizrob bilan torlarni П – pastga va V – tepaga zarb berish orqali amalga oshiriladi. Tovush hosil qilishning ushbu ikki turining turli xil birikmalaridan ko'plab ijro shtrixlarini vujudga keltirish mumkin.

Cholg'u sozlarini o'rgatish fanida talabalarga cholg'u o'rgatishning dastlabki bosqichida mizrobni to'g'ri ushlashni o'rgatilgach, albatta pastga zarb bilan chalishni o'rgatishdan boshlanadi. Bunda o'ng qo'l panjalari erkin harakat bilan pastga zarb beradi. Mashg'ulot o'tkazishda cholg'uning ochiq torlarida ma'lum vaqt davomida ijro qilinib, so'ngra chap qo'l bilan eng qulay bosiladigan pardalarda davom ettiriladi.

Ijro shtrixlari deganda o'z-o'zidan tovushning xususiyatlari haqida so'z ketadi. Chunki shtrixlar tovushni rang-barang holda jaranglatib unga o'zgacha xususiyat baxsh etadi. O'quv jarayonining asosiy maqsadlaridan biri talabalarga ana shu usullarni o'rgatishdan iborat. Ushbu masalalar ko'plab o'quv adabiyotlarida turlicha yondashuvlar orqali, atroflicha yoritilgan.

Bugungi kunda cholg'u ijrochiligi kundan-kun rivojlanib, cholg'u sozlarida turli murakkablikdagi asarlar ijrochilar tomonidan me'yoriga yetkazib ijro qilinmoqda. Talabalarga ularning ijro imkoniyatidan kelib chiqqan holda va ularning o'zlashtirish darajasini hisobga olib asarlar berish lozim. Bunda asosan asarning mohiyati, uning barcha xususiyatlarini ijroda to'liq ochib berish uchun cholg'u sozining tovushi, tovush kuchi, uning barcha xususiyatlari asosiy mezon bo'lib qoladi. Odatda, talabalar ijrosida tovushlarning sifatsizligi, ularning hissiz ijro etilishi, shuningdek, asarni tushunmasdan ijro etish holatlari ushrab turadi. Buning oldini olish uchun avvalo talaba o'ng qo'l texnikasi ustida ishlashi, mizrobni, torlarni his qilish ko'nikmalarini o'zlashtirish talab etiladi. Ana shunda o'ng qo'l mizrobni, tovushni boshqarishi mumkin. Talabalarda dinamik belgilarni amalda bajarmaslik, tovushni o'zgartiruvchi belgilar ijrosining tushunarsizligi, jumlalarni sezmaslik, uning badiiy talqinini to'g'ri yetkaza olmaslik kabi kamchiliklar uchrab turadi. Bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish uchun talabalar nafaqat ijro ko'nikmalarini o'zlashtirishni, balki, eshitish ko'nikmalarini



rivojlantirishni, nazariy bilimlarni yaxshi egallashni, ijro etilayotgan asar muallifi, yaratgan davri, ijro uslubi haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirgan bo'lishlari lozim. Bunda mizrobni boshqarish, uni qattiqroq yoki bo'shroq ushlash, o'ng qo'l amplitudasining qisqa yoki kengligi, torlarga berilayotgan zarblarning xususiyati yoki sifati, uning keskinligi yoki yumshoqligi, tremolo shtrixida uni tepaga yoki pastga uzilishi kabi holatlarning qay darajada aniq o'zlashtirilishi tovush sifatiga, uni boshqarishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Talabalar oliy o'quv yurtiga ma'lum ijro ko'nikmalarini va bilimlarni o'zlashtirgan holda kelishadi. Cholg'u sozlarini o'rganish fani bo'yicha talabalar bilan yuqorida tilgan olingan jihatlar ustida ishlash talabalarning kelgusida cholg'u sozi bilan mukammal tanishishiga hamda mohir ijrochi, yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlarida samara beradi.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Cholg'u ijrochiligida tovush hosil qilish va ohangdoshlik to'g'risida gapiring.
2. Qashqar rubobi ijrochiligida qo'llaniladigan ijro shtrixlarini sanab ko'rsating.
3. Qashqar rubobi ijrochiligida qo'llaniladigan ijro shtrixlarini ijro qiling.

## 5-MASHG'ULOT: SHTRIXLAR, TOVUSHLARNI BIR-BIRIGA BOG'LASH YO'LLARI

Reja:

1.Yakka zarb, Qo'sh zarb, Bilak zarb.
2.Tremolo, Teskari zarb, Ufor zarb.
3.Trel va forshlag.

Cholg'u ijrochiligida mizrob bilan pastga va yuqoriga uriladigan zarblar yordamida tovush hosil qilinadi.

Bu zarblarni turli xil usullaridan foydalanish mumkin, ular quyidagi nomlar bilan ataladi:

Yakka zarb - tovush hosil qilishning eng oddiy usuli bo'lib, cholg'u torlarini pastga yoki yuqoriga zarb berish bilan amalga oshiriladi. Yakka zarb qo'lni yuqoridan pastga harakatlantirib zarb berish usuli bilan bajariladi, bu holda nota ustiga (П) belgisi qo'yiladi. Xuddi shunday pastdan yuqoriga qarata zarb berib

tovush hosil qilinishni (V) belgisi bilan belgilanadi. Bu usullardan asosan o'rgatishning dastlabki bosqichida foydalaniladi.
1-misol.



Qo'sh zarb – pastga va yuqoriga zarblarni birin-ketin, bir tekisda urib chalinishiga aytiladi.
2-misol.



Bilak zarb - o'ng qo'l panjasining barcha torlar bo'ylab yuqoridan pastga yo'naltirilgan sirg'anma harakati bilan mazkur ijro usuli amalga oshiriladi. Bilak zarb usulini ijro etishda mizrob bilan barcha torlarda bir tekisda ijro etiladi. Bu belgi nota oldida to'lqinsimon tik chiziq bilan belgilanadi.

Qashqar va afg'on ruboblarida uch xil sozlanishini hisobga olib, mazkur sozlarda bilak zarb usulini qo'llanishini nota misollari yordamida quyidagicha bo'ladi:



Tremolo (rez) – rubob torlarida mizrobni pastga hamda yuqoriga juda tez va ketma-ket almashuvidan iborat bo'lib, tovushlarni bir-biriga bog'lab (uzluksiz) ijro etish usulidir. Tremolo rubob ijrosining asosiy usullaridan hisoblanib, u ohangdor va mungli xarakterdagi asarlarda foydalaniladi.



Teskari zarb - o'ziga xos sinkopali ritm xarakteriga ega. U mizrob bilan bir tomon (past)ga zarb berishning ikkinchi choragiga qat'iy rioya qilish va bir yo'nalishdagi zarblarning oxirgi choragining sakkizdan uchini birlashtirilishi natijasida hosil bo'ladi. Ya'ni 1,3,4,6,7,- zarblar pastga, 2,5,8- zarblar yuqoriga qaratib ijro etiladi. Bu o'rinda qo'sh zarbning o'rni (noxun bilan pastga va yuqoriga bo'lgan bir tekis harakat) o'zgaradi va 1,4,7- tovushlar urg'u bilan ijro etiladi. Urg'u zarblar ustidagi ">" belgisi bilan ifodalanadi.





Ufori zarb - o'zbek xalq yalla va raqs kuylari uchun xarakterlidir. Mumtoz musiqa amaliyotida uforilar ikki xil, ya'ni 6/8 va 3/4 o'lchovlarida notaga yoziladi. Kuylarni notaga yozishida 6/8 o'lchovidagi uforilar ko'proq bo'lib, ular sho'xchan va raqsga chorlovchi xarakterga ega. Ufori zarbning 6/8 o'lchoviga molik namunalari ikki xil ijro etiladi. Bu usullarni bir-biridan farqlab olishimizda nota ustiga yozilgan belgilar yordam beradi. Bu (V) belgi bilan ifodalanadi.



Trel - asosiy tovushning keyingi tovush bilan almashib turishi natijasida paydo bo'lgan tovush bidratma tovush deyiladi.



Forshlag – kuyning asosiy tovushidan oldin keladigan, qisqa chertib o'tiladigan tovushga aytiladi.



**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Yakka zarb, bilak zarb va qo'sh zarb usuli haqida gapiring hamda ijro qilib ko'rsating.

Tremolo va trel usuli to'g'risida ma'lumot bering hamda ijro qilib ko'rsating.

2. Tremolo va trel usuli to'g'risida ma'lumot bering hamda ijro qilib ko'rsating.

3. Teskari zarb, forshlag va ufori zarb usuli haqida gapiring va ijro qilib ko'rsating.

## 6-MASHG‘ULOT: MASHQ, GAMMA VA ETYUDLAR IJROSI

**Reja:**

1.Mashqlar.

2.Gammalar.

3.Etyudlar.

Mashq va gammalarni ijro qilishning dastlabki bosqichida cholg‘uni to‘g‘ri ushlash va ovoz chiqarish, oddiy shtrixlarni o‘zlashtirish va chap qo‘lni cholg‘u dastasi bo‘yicha harakatlantirish kabi yengil ijro malakalarini o‘rganishga yordam beradi. Keyingi bosqichda esa tovush chiqarish texnikasi, murakkab passajlar va shtrixlarni o‘zlashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mashq va gammalar ustida ishlash talabalarning tayyorgarligi va uning oldiga qo‘yilgan vazifadan kelib chiqqan bo‘lishi kerak. Biron-bir ko‘nikmani o‘zlashtirishda mashqlarni sekin sur’atda chalib o‘rganish va keyin tez sur’atda davom ettirish lozim.

## Mashq

G.Shradik







Gammalarni ijro qilishda barmoqlarning joylashuvi ya’ni, applikatura va dastadagi bosqichlarni bir xil, faqat ular turli torlarda ijro qilinadi. Bu talabalarga dastlabki bosqichda uch torda har xil gammalarni oson o‘zlashtirish imkonini beradi.

Do major



Lya minor



Sol major



Mi minor



Re major



Si minor



Lya major



Fa diyez minor



Etyud – fransuzcha so‘z bo‘lib “mashq” degan ma’noni bildiradi. Etyudlar ma’lum bir shtrixlar, ko‘nikmalarni o‘zlashtirish yoki turli texnik imkoniyatlarni, chap va o‘ng qo‘l harakatini rivojlantirish kabi maqsadlarda qo‘llaniladi.

Talabalarga navbatdagi o‘rganiladigan qiyinroq asar yoki biron bir shtrix, ko‘nikmalarni o‘zlashtirish maqsadida, talabaning ijro ko‘nikmalarini o‘zlashtirishdagi mavjud kamchiliklarini hisobga olgan holda etyud tanlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Etyudlar to‘liq o‘zlashtirilishi, shu bilan birga xatosiz, doimiy chalinadigan mashq darajasida ijro etilishi muhim bo‘lib, faqat shundagina ko‘zlangan maqsadga erishiladi.



## Etyud

O.Shervichik




## Etyud

O.Xolmuhamedov



# Etyud

**Allegro**

O.Xolmuhamedov





# Etyud

A.Komarovskiy

**Vivace**



# Etyud

A.Komarovskiy






# Etyud

A.Yanshinov



# Etyud

D.Kabalevskiy






# Etyud-kuy

S.Usmonov











**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1.Cholg‘u ijrochiligida mashq va gammalarning ahamiyati to‘g‘rida gapiring.

2. Mashq va gammalardan namunalar ijro etish bering.

3.Etyud so‘ziga ta’rif bering.

4.Etyudlar ijro qilish.

## 7-MASHG'ULOT: KUYLARNI NOTA MATNIGA QARAB IJRO QILISH

**Reja:**

1. Nota matniga qarab ijro qilish haqida tushuncha.
2. Kuylarni nota matniga qarab ijro qilish uchun asarlar.

Ushbu dars amaliy mashg'ulot shaklida olib borilib, Cholg'u sozlarini o'rganish fanidan saboq olayotgan talabalarning nota matnlarini o'qish ko'nikmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Vokal san'ati yo'nalishi talabalari asosan xonandalardan iborat bo'lganligi bois ularga cholg'u ijrochiligini o'rgatishda talabalarning iqtidoridan kelib chiqqan holda eshitib ijro qilish yoki nota matniga qarab asar ijro qilish lozim. Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalarning nota o'qish malakasini o'stirish maqsadida kichik xalq kuylari yoki bastakorlar asarlaridan foydalaniladi. Quyida talabalar dars jarayonida nota matnlarini o'qib ijro qilishlari uchun kichik asarlar berildi.

### Do'loncha

O'zbek xalq kuyi






### Qashqarcha

O'zbek xalq kuyi



### Davra qo'shig'i

Sulaymon Yudakov musiqasi



## Olmacha anor

**Allegretto**

O`zbek xalq kuyi.




## Gullola

Il.Akbarov musiqasi





## O'zgancha

O'zbek xalq kuyi

**Shoshilmasdan**



**Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.**

1.Kuylarni notaga qarab ijro qilishda nimalarga ahamiyat berish kerak.

2. "Do'loncha" kuyini tahlil qiling va nota matniga qarab ijro qilib bering.

3. "Qashqarcha" kuyini tahlil qiling va nota matniga qarab ijro qilib bering.

4. "Davra qo'shig'i" kuyini tahlil qiling va nota matniga qarab ijro qilib bering.

5. "Gullola" kuyini tahlil qiling va nota matniga qarab ijro qilib bering.

6. "O'zgancha" kuyini tahlil qiling va nota matniga qarab ijro qilib bering.

## 8-MASHG'ULOT: M.MIRZAYEV ASARLARINI O'RGANISH

**Reja:**

1. Talabalarni bastakor M.Mirzayev hayoti va ijodi bilan tanishtirish.
2. "Yangi tanovar" kuyini o'rgatish.
3. "Gulshan" kuyini o'rgatish.

### MUHAMMADJON MIRZAYEV
### (1913-1999)



O'zbekiston xalq artisti, bastakor va sozanda Muhammadjon Mirzayev ajoyib lirik qo'shiq, ashula va kuylari bilan el-yurt hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lib, XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. U bastakorlik an'analarini davom ettirgan holda yaratgan asarlarida hayotni, sevgi-muhabbatni, vafo va sadoqatni, mardlik va jasoratni ar-doqladi va baralla kuyladi. 1975 yildan O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi a'zosi M.Mirzayev zamonaviy o'zbek musiqa san'atining rivojlanishiga barakali hissa qo'shdi va katta musiqiy meros qoldirdi.

Muhammadjon Mirzayev Toshkent shahrida 1913 yilning 13 avgustida ishchi oilasida tug'ildi. 1920 yildan umumta'lim maktabda o'qidi. 1932 yili Toshkent To'qimachilik kombinatiga ishga kirdi va bo'sh vaqtlarida Temiryo'lchilar klubida tashkil topgan havaskorlik to'garagiga qatnab, mandolina chalishni o'rgandi. 1936 yili O'zbek filarmoniyasi qoshida T.Jalilov rahbarligida tashkil topgan «O'zbek xalq cholg'ulari ansambli»ga ishga qabul qilindi. Mazkur ansambl uning uchun katta ijrochilik maktabi bo'ldi. Bu yerda M.Mirzayevga T.Jalilov ko'rsatmasi bilan, rubobchi Yusuf-Oxun qashqar rubobida chalishni o'rgatdi. Yosh sozanda tez orada ansamblda ishtirok eta boshladi. Shu asnoda u qashqar rubobini omma orasida keng tarqalishiga sababchi bo'lib qoldi. Darhaqiqat mazkur ijodiy jamoa M.Mirzayev uchun birgina rubob chalishda emas, balki o'zbek xalq musiqa merosini puxta o'rganishga qulay imkoniyatlar yaratdi. U mashhur sozandalar bilan yonma-yon ishlab, bo'sh vaqtlarida ular bilan muloqotda bo'lib, musiqa ijrochiligi va ijodkorligi sirlarini o'rgandi va hayotiy maktabini shu ansamblda o'tadi.



Ikkinchi jahon urushi yillari O'zbek filarmoniyasi qoshida bir nechta «Front kontsert brigadalari» tuzildi. Shulardan biri 1942 yilda tashkil etilgan bo'lib quyidagi san'atkorlardan iborat edi: D.Soatqulov (nay), M.Mirzayev (rubob), S. Aliev (g'ijjak), Sh.Hamdamov (doira), N.Nalivayko (bayan), xonandalar N.Yokubova va S.Samandarova, laparchi M.Otonova, raqqosa T.Mahmudova. Ular jangchilariga kontsertlar berib, faol xizmat qildilar.

Ma'lumki, 1943 yili «Farhod GES» qurilishi munosabati bilan ishchilarga madaniy xizmat qilish maqsadida boshqarma qoshida kompozitor va dirijor M.Nasimov rahbarligida «Musiqali drama teatri» tashkil topdi. O'zbekiston «San'at» bosh boshqarmasi M.Mirzayevni ushbu teatrga musiqa rahbari lavozimiga tayinladi. Uning mustaqil bastakorlik faoliyati shu jamoada boshlandi. Sozanda va ijodkor azamat quruvchilarga atab g'ayrat bilan, zamonaviy mavzularda yangi-yangi jozibali qo'shiq va raqs kuylarni yaratdi va ansambl ijro repertuarini boyitib bordi. 1946 yili rubobchi Mirzayev filarmoniyaga ishga qaytdi. Ikki yildan so'ng Toshkent davlat konservatoriyasida «O'zbek xalq cholg'ulari» kafedrasi tashkil topdi. Bu dargohga Mirzayev birinchi talabalar qatorida o'qishga kirdi va 1953 yili bitirdi. Shu yildan boshlab to umrining oxirigacha filarmoniya huzuridagi «Musiqa bo'limida» rubobchi-yakkanavoz vazifasida ishlab, tomoshabinlarga faol xizmat qildi. Uning ijrochilik mahoratiga tinglovchilar tan berishar edi. Kasbiy sozandalikni, yuqori malakali ijrochilik san'atini sevimli o'g'li Shavkat Mirzayevga otasi meros qilib qoldirdi.

Bastakor va sozanda M.Mirzayevning ijodiy faoliyati, ayniqsa, urushdan keyingi yillarda gullab-yashnadi. U 50-80 yillarda o'z ustida ko'p ishladi, izlandi, tinimsiz ijodiy mehnatda bo'lish uning yashash tarziga aylandi. U yillar davomida, xalqimizning sevimli xonanda, sozanda va raqqosalariga atab, ularga mo'ljallab ajoyib asarlar yaratib berar edi. Masalan, xalqimizning faxri O'zbekiston xalq hofizi Ma'murjon Uzoqov ijrosida bastakorning quyidagi ashula va yallalari ilk bor yangradi: «Qachon bo'lg'ay», «Sho'xi jononim mening», «Yor istab», «Yo'lingda» (Z.Furqat she'rlari), «Yakka bu Farg'onada», «Ko'zlaring», «Suvrating», «Yolg'iz», «Yana» (Muqimiy she'rlari), «Shaydo bo'libman» (Kamtar so'zi), «Zor etting» (Jannati so'zi), «Parvo etib ket» (S.Abdulla so'zi). Tojikiston va o'zbek xalqlarining sevimli xonandasi, Tojikiston xalq artisti Hanifa Mavlonova ijrosida bastakorning quyidagi ashulalari mashhur bo'lib ketgan edi: «Parvona bo'ldim» (Kamtar so'zi), «Yuragingni o'ynatdimi» va «Gulchehra yor» (P.Mo'min so'zlari), «Husningga bu shaydoni» (Shuhiy so'zi) «Tong otguncha»

(Dilafgor so'zi). Shuni aytib o'tish joizki, M.Mirzayev, yillar davomida, M.Turg'unboeva nomidagi «Bahor» raqs ansambli, O'zbek davlat filarmoniyasining «Shodlik», «Lazgi» ashula va raqs ansambllar repertuarini boyitib keldi. U uch yuzdan ortiq qo'shiq, ashula, yalla va raqs kuylarini yaratdi. Uning yaratgan asarlari orasida juda ham mashhur bo'lib ketgan, ajoyib «Bahor valsi», «Dildor 1 va 2», «Intizor etma», «Ufori sanam», «Gulnoz» raqs kuylarni yoki «Oltin sandiq», «Ey gul», «Uch dugona», «Toshkent nahori», «Muhabbat maktubi» (T.To'la so'zlari), «Ko'zlarimga ziyo olaman» va «Chavandoz qizlar» (N.Narzullayev so'zlari), «Assalom, kelin salom» va «Onalar» (U.Rashid so'zlari) kabi qo'shiqlarni, rubob uchun yaratgan «Go'zal Vatanim», «Marg'ilon qizlari», «Orzu dil», «Zulfizar», «Yor uchrashuv», «Dilrabo», «Shodlik» kuylari keng qanot yozdi.

Bastakor M.Mirzayev ona-yurt tabiatiga, sevimli xalqiga, san'atkorlarga har doim hayrat va hayajon bilan go'zallikni kuy va qo'shiqlarida ifodalab keldi. U o'z davrining mashhur kuychisi edi, shuning uchun uning ijodida zamonaviy mavzu ustuvorturdi. Shuni aytish joizki, M.Mirzayev 1937,1951,1959 yillarda Moskvada o'tkazilgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadalarida, «Katta Farg'ona», «Farhod GES», «Katta qo'rg'on suv ombori», «Toshkent kanali» kabi yirik inshootlarning qurilishlarida ijrochiligi va bastakorligi bilan faol qatnashdi.

U zamonaviy O'zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanishidagi ulkan xizmatlari uchun quyidagi unvon, orden va medallar bilan taqdirlangan: 1945 yili «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist», 1965 yili «O'zbekiston xalq artisti» faxriy unvonlari bilan mukofotlangan.



# Yangi tanovar

Muhammadjon Mirzayev musiqasi



# Gulshan

Muhammadjon Mirzayev musiqasi

**O'rtacha tez**








Topshiriqlar.
1. Kuy notasini daftarga chiroyli qilib ko'chiring.
2. Kuy sur'ati, o'lchovi, alteratsiya belgilari, diapazoni, dinamik belgilarini esda saqlang va ijro qilib o'rganing.

## 9-MASHG'ULOT: F.NAZAROV ASARLARINI O'RGANISH

**Reja:**

1. Talabalarni bastakor F.Nazarov hayoti va ijodi bilan tanishtirish.
2. "*Maktabim*" kuyini o'rgatish.
3. "Paxtaoy" kuyini o'rgatish.
4. "Yoshlik" kuyini o'rgatish.

### FATTOH NAZAROV
### (1919-1980)



O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarida xizmat ko'rsatgan artist, dirijyor, kompozitor, professor Fattoh Nazarov ijodkorlik, dirijorlik, o'qituvchilik va jamoatchilik faoliyati bilan XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. Uning yoshlar uchun turli janrlarda yaratgan kuy va qo'shiqlari bolalar bog'chalarida, o'rta ta'lim va musiqa maktablarida keng qo'llanib kelinmoqda.

Fattoh Nazarov Abduvahob o'g'li Bishkek shahrida 1919 yilning 1 yanvarida hunarmand oilasida tug'ildi. Fattohning musiqaga havasi juda erta uyg'ondi. U onasining allalarini, dutor chalib qo'shiq aytishlarini va baytlarini tinglab o'sdi. Mahallaning o'zbek va qirg'iz ahli to'ylarida yangragan musiqa sadolari uni o'ziga maftun qilar edi. Uning baxtiga umumta'lim maktabini bitirgan yili shahar musiqa studiyasi ochildi. Fattoh birinchilardan bo'lib klarnet chalishni o'rgana boshladi. Fattohning musiqiy qobiliyati va a'lo o'qishini nazarga olib, o'qituvchilar 1935 yil Ippolitov Ivanov nomidagi Moskva musiqa bilim yurtida o'qishga tavsiya etildi. Mazkur o'quv dargohda klarnet va violonchel mutaxassisliklari bo'yicha o'qidi. 1937 yili 60 nafar yosh violonchelchilar unison ansamblida katta kontsertda ilk bor qatnashdi. 1939 yili o'qishni bitirish arafasida F.Nazarov harbiy xizmatga chaqiriladi. U harbiy qism damli orkestrida klarnetchi bo'lib xizmat qila boshladi va unga o'qishni bitirishga imkon berildi. 1941 yili boshlangan Ikkinchi jahon urushi harbiy xizmatdan qaytishga yo'l qo'ymadi. 1941-44 yillarda F.Nazarov oddiy askar bo'lib xizmat qildi. Moskva konservatoriyasi qoshidagi harbiy dirijorlik fakultetida o'qidi va 1945 yilning iyun oyida ona shahriga qaytdi.



Bishkekda drama teatri musiqa rahbari va Qirg'iziston davlat filarmoniyasining xalq cholg'ulari orkestri dirijori lavozimlariga tayinlandi. 1947 yili F.Nazarovning hayotida katta burilish sodir bo'ldi. U Toshkent davlat konservatoriyasining opera simfonik dirijorligi mutaxassisligi bo'yicha qabul qilinadi. Bu oliy o'quv dargohida pedagoglar P.Dolgushin, A.Shtepman, G. Daniyax, M. Ashrafiy kabi dirijorlar rahnamoligida mumtoz va zamondosh kompozitorlarning asarlari bilan tanishib dirijorlik qiladi. 1949-50 o'quv yilidan boshlab F.Nazarov G.Mushel sinfida kompozitsiyadan dars ola boshladi. 1951 yili konservatoriyani dirijorlik sinfi bo'yicha bitirib, O'zbekiston radiosi huzuridagi simfonik orkestr dirijori lavozimiga tayinlandi, ikki yildan so`ng o'zbek filarmoniyasining simfonik orkestriga ishga o'tkaziladi. 1955 yili yozgan 4 qismli simfoniyasiga o'zi dirijorlik qilib, F.Nazarov ikkinchi diplom olishga muvaffaq bo'ldi. Yosh mutaxassis 1952-1958 yillarda Muqimiy nomidagi musiqali teatr dirijori bo'lib ishladi. O'qishi va mehnat faoliyati bilan birga 1950-82 yillarda konservatoriyaning o'zbek xalq cholg'ulari fakultetida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent va professor lavozimida ishladi.

Kompozitorning 1964 yili Moskva konservatoriyasi qoshidagi maxsus musiqa maktabining 7-sinfida o'qiyotgan qizi Gulnora Nazarova uchun atab fortepiano va simfonik orkestr uchun yozgan kontserti qizining ilk ijrosida mashxur bo'lib ketdi. 1973 yili kontsert partiturasi Moskva nashriyotida chop etilishi bilan ko'p musiqa maktablarining o'quvchilari tomonidan ijro etila boshlandi. F.Nazarovning 1948 yilda skripka va fortepiano uchun bastalagan «Qo'shiq va raqs» kuyi (g'ijjak va fortepiano uchun variatsiyalari ham bor) musiqa maktablari, bilim yurtlari va konservatoriya talabalarining o'quv dasturi sifatida doim ijro etilmoqda. Bular qatorida 60-70-yillarda yozilgan skripka va fortepiano uchun poema, Hamzaning «Sayyora» ashulasi asosida bastalagan pesasi, fortepiano uchun «Noktyurn», «Marsh», «Fuga», «Raqs», «Vals» kabi pesalari, skripka va fortepiano uchun «Kontsertino», g'ijjak va fortepiano uchun «Vals», «Rubob va fortepiano uchun skertso», dutor va fortepiano uchun «Kontsert pesasi», fortepiano uchun 10 ta pesa, violonchel va fortepiano uchun «Kontsertino», rubob uchun «Amudaryo» vals-kontserti, bolalar simfonik orkestri uchun 4 qismli syuita kabilar yosh ijrochilar kontsert dasturlarida saqlanib kelmoqda.

F.Nazarov «Ravshan» (J.Oymirzayev va T.Ollonazarov pesasi) musiqali dramasi 1956 yil, «Ko'ychelek kozli yar» (A.Saidjonov pesasi) musiqali komediyasi 1959 yil, «Aldangan qiz» (R.Orifjonov pesasi) musiqali dramasi 1967

yil; «Dard tortsa» (X.Umarov pesasi) musiqali dramasi 1967 yil; «Mulla To'ychi» (J.Asomiddinov pesasi) musiqali dramasi 1973 yil, «Afsonaviy shaxs» (S.Jamol pesasi) musiqali dramasi 1978 yil, «Harflar jangi» (T.Ilhomov pesasi) 1974 yil va Hamid Olimjonning «Oygul va Baxtiyor» nomli radiopostanovkalari uchun musiqa hamda yosh tomoshabinlar teatri spektakllari uchun musiqa bastalagan.

Kompozitor simfonik orkestr uchun qo'ygan: «O'zbekcha syuita», «Qirg'izcha syuita», «Simfoniya», «Ikkinchi o'zbekcha syuita». O'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun «Yoshlar syuitasi», «Bolalar syuitasi», «Nasrulloiy Ufar poemasi», «Qoraqalpoqcha rapsodiya», «Qoraqalpoqcha syuita», «Shodiyona uvertyurasi», uch qismli «Syuita», «Bayram marshi», «Chorvoq taronalari syuitasi». Damli orkestr uchun «O'zbekiston» marshi, «Bayram marshi», klarnet va estrada orkestri uchun 3 qismli syuita yaratdi. Bu asarlardan tashqari uning yakkaxon, xor va simfonik orkestr ishtirokida ijro etiladigan «O'zbekiston xotin-qizlari» kantatasi, O'.Rashid so'ziga yozilgan 5 qismli «Vatan bizning onamiz» bolalar xori va simfonik orkestr uchun syuita, torli kvartet kabi asarlar turli ijro jamoalar repertuarini boyitdi. F.Nazarovning ijodiy faoliyatida ommaviy qo'shiq, ayniqsa, bolalar uchun yozilgan qo'shiqlar ustuvor turadi: «O'zbekiston» (M.Qoriev so'zi), «Vatan mehri» (Shonazar so'zi), «Terimchi qiz» (Habibiy so'zi), «Mening qalbim» (H.Rasul so'zi), «Qaydasan» (X.Muhammadjonov so'zi), «Qirg'iziston» va «Kel, bu oqshom» (Mirtemir so'zi), «Do'stlik qo'shig'i» (D.Polinin so'zi), «Chilonzor» (Oymirzayev so'zi), «Durdona» (A.Toqomboev so'zi), «Oy, muhabbat» (K.Akayev so'zi), «Do'stlik qo'shig'i» va «Qaldirg'och» (B.Ismoilov so'zlari), «To'y taronasi» (Haydar so'zi), «Yor-yor» (A.Bo'riev so'zi), «Lirik qo'shiq» va «Bahodir jangchilar» (Kamtar so'zlari), Bolalar qo'shiqlaridan «Kichik paxtakor» (Shonazar so'zi), «Sayra, bulbul» va «Archa» (Muhammadiy so'zlari), «Qumrixon» (Boboev so'zi), «Onaginamning allasi» (R.Bobojon so'zi), «Maktabim», «Yoz» va «Shodlik» (I.Muslim so'zlari), «Ohangaron» (Ya.Qurbon so'zi), «Dono bobo», «Qish chog'lari», «Oyijon» va «Oltin ko'l» (P.Mo'min so'zlari), «Bo'z to'rg'ay» (B.Ismoilov so'zi), «O'yinchi laylak», «Kichkintoylar qo'shig'i» (I.Muslim so'zi), «Dadajon» (Z.Obidov so'zi) va boshqalar.

Kompozitor jami kattalar va bolalar uchun 150 dan ortiq turli mavzularda qo'shiqlar yaratgan. 1946 yildan Qozog'iston, 1947 yildan O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi a'zosi F.Nazarov bolalarga atab qo'shiq va boshqa janrlarda asarlar yaratdi. F.Nazarov «O'zbekiston va Qoraqalpog'iston



Respublikalarida xizmat ko'rsatgan artist» faxriy unvoni bilan taqdirlangan. Uning nomi Toshkent shahri 23- bolalar musiqa maktabiga berilgan.

## Maktabim

Fattoh Nazarov musiqasi




## Paxtaoy

Fattoh Nazarov musiqasi



# Yoshlik

Fattoh Nazarov musiqasi








Topshiriqlar

1.Kuyni notasini daftarga chiroyli qilib ko'chiring!

2.Kuyni bastakori haqida ma'lumot bering!

3.Kuyni sur'ati, o'lchovi, al'teratsiya belgilari, diapazoni, dinamik belgilarini esda saqlang va ijro qilb kuylang!

## 10-MASHG'ULOT: S.YUDAKOV ASARLARINI O'RGANISH

**Reja:**

1. Talabalarni kompozitor S.Yudakov hayoti va ijodi bilan tanishtirish.
2. "*Hidoyat kupletlari*" kuyini o'rgatish.

### Sulaymon Yudakov

(1916-1992)



O'zbekiston xalq artisti, Davlat mukofotlari sovrindori, kompozitor Yudakov Sulaymon (Solomon) Aleksandrovich Qo'qon shahrida kambag'al kosib oilasida 1916-yilning 14-aprelida tavallud topdi.

S.Yudakovning mustaqil ijodiy faoliyati Ikkinchi jahon urushi yillarida boshlandi. U 1941-45 yillarda o'zbek o'g'loni yurt qahramoni Qo'chqor Turdiyevga bag'ishlab «Oldinga bosing, o'rtoqlar!» va «Do'stlar» (A.Lohutiy so'zlari); «Chavandozlar qo'shig`i» (Mirtemir so'zi), «Jonga-jon, qonga-qon» (T.Fattoh so'zi) kabi vatanparvar ommaviy qo'shiqlar; «Habibi tu manam» (H.Yusufiy so'zi) romans; 1942 y. «Farzanad» (S.Ismoilzoda pesasi) musiqali drama, torli kvartet uchun 3 ta pesa va syuita va simfonik orkestr uchun «Syuita» asarlarini yaratdi. Ijod bilan birga S.Yudakov 1941-42 yillarda Hamza nomidagi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. 1943-44 yillarda Tojikiston filarmoniyasida badiiy rahbar lavozimida ishladi. Tojik shoirlarining so'zlariga bir qator qo'shiq va romanslar yaratdi. 1945 yili Tojikiston Davlat madhiyasini yozish uchun ko'rik-tanlov e'lon qilindi. Mazkur tanlov uchun boshqa kompozitorlar qatorida S.Yudakov ham A. Lohutiy so'ziga madhiya yozdi. S.Yudakovning musiqasi tanlab olinib tasdiqlandi, hozirga qadar so'zi o'zgartirilgan holda bu madhiya jaranglab kelmoqda.

Skripka, violonchel va fortepiano uchun «Syuita» (1946 y.); ikkita fortepiano uchun «Syuita» (1948 y.); simfonik orkestr uchun «Tantanavor uvertyura» (1949 y.); torli kvartet uchun «Syuita» (1949 y.); Navoiy so'ziga «Basandast» (1949 y.) romans, M.Mirshakar so'ziga «Alla» va «Yangi g'alabalar uchun» qo'shiqlar, shoir M.Tursun



so'ziga xonanda, xor va simfonik orkestr uchun «O, qiz bola» qo'shig'i kabi turli janrlarda bastalagan bu asarlar o'lkamizni zamonaviy musiqa san'atiga yana bir iste'dodli, zabardast kompozitor mustaqil ravishda kirib kelganidan darak bergan edi. S.Yudakov asarlarida o'zbek va tojik xalqari musiqasining ta'siri bo'lsada, ammo o'z uslubiga xos asarlar yaratishga e'tibor bergani ham yaqqol seziladi. 1948 yilda o'tgan O'zbekiston bastakorlar uyushmasining urushdan keyingi birinchi qurultoyida S.Yudakov hay'at a'zosi va simfonik musiqa komissiyasining raisi va o'sha yili Moskvada o'tgan Kompozitorlar uyushmasining birinchi qurultoyida taftish komissiyasining a'zosi etib saylandi. Kelgusida ham to umrining oxirigacha mazkur faxriy lavozimlarga saylanib keldi. 1951-53 yillarda S.Yudakov O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi hay'atining mas'ul kotibi bo'lib ishladi.

S.Yudakov mahoratining badiiy jihatdan etilib borishi muhim davri 50-80-yillarga to'g'ri keladi. Bu davr uning uchun yangi sinovlar va ijodiy yutuqlar davri bo'ldi. Qat'iy ichki intizomga ega bo'lgan kompozitor, shu vaqt orasida o'z ustida ishlab, professional kompozitorlik yozish texnikasini mukammal ravishda o'zlashtiribgina qolmay, ajoyib badiiy yuksak musiqiy asarlar yaratishga muyassar bo'ldi. Yaxshilik, ezgulik, birodarlik, do'stlikni ulug'ladi. Ezgu orzu-umidlar bilan xalqlarni safarbarlikka da'vat qildi. Kelajakka katta ishonch bilan qaradi. Bular uning asarlariga xos bo'lgan muhim xususiyatlardir. Bu o'rinda A.Muxtor so'ziga yozilgan «Jon O'zbekiston», «Mehnat shodligi», G'.G'ulom so'ziga «Qirg'iziston paxtakorlariga», Sh.Rashidov so'ziga «Dugonalar», «Olamda gullar yashar», T.To'la so'ziga «Karnaval valsi», A.Surkov so'ziga «Hindi-rusi bxay-bxay», «Tinchliksevarlar marshi», kabi jozibali, jo'shqin qo'shiqlar fikrimizning dalilidir. Ayniqsa, bu o'rinda kompozitorni 1950 yili G'.G'ulom so'ziga yozgan, 1951 yilda esa Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan 6 qismli «Mirzacho'l» nomli vokal-simfonik syuitasi; 1955 yilda T.To'la so'zlariga yozilgan: «Mening Vatanim» 4 qismli kantata, «Visol» (1965 y.) vokal poemalar, H.G'ulom so'ziga yozilgan «Muborakbod» 5 qismli kantata (bolalar xor jamoasi ham qatnashadi, 1972 y.), Mirtemir so'ziga yozilgan «Alyor» vokal xoreografik solist, xor va raqs jamoalari uchun (1972 y.), E.Vohidov so'ziga «O'zbekiston» nomli solist, xor va simfonik orkestr uchun poema-kantata (1973 y.),

## 10-MASHG‘ULOT: S.YUDAKOV ASARLARINI O‘RGANISH

**Reja:**

1. Talabalarni kompozitor S.Yudakov hayoti va ijodi bilan tanishtirish.
2. “*Hidoyat kupletlari*” kuyini o‘rgatish.

### Sulaymon Yudakov

(1916-1992)



O‘zbekiston xalq artisti, Davlat mukofotlari sovrindori, kompozitor Yudakov Sulaymon (Solomon) Aleksandrovich Qo‘qon shahrida kambag‘al kosib oilasida 1916-yilning 14-aprelida tavallud topdi.

S.Yudakovning mustaqil ijodiy faoliyati Ikkinchi jahon urushi yillarida boshlandi. U 1941-45 yillarda o‘zbek o‘g‘loni yurt qahramoni Qo‘chqor Turdiyevga bag‘ishlab «Oldinga bosing, o‘rtoqlar!» va «Do‘stlar» (A.Lohutiy so‘zlari); «Chavandozlar qo‘shig‘i» (Mirtemir so‘zi), «Jonga-jon, qonga-qon» (T.Fattoh so‘zi) kabi vatanparvar ommaviy qo‘shiqlar; «Habibi tu manam» (H.Yusufiy so‘zi) romans; 1942 y. «Farzanad» (S.Ismoilzoda pesasi) musiqali drama, torli kvartet uchun 3 ta pesa va syuita va simfonik orkestr uchun «Syuita» asarlarini yaratdi. Ijod bilan birga S.Yudakov 1941-42 yillarda Hamza nomidagi san’atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida ilmiy xodim bo‘lib ishladi. 1943-44 yillarda Tojikiston filarmoniyasida badiiy rahbar lavozimida ishladi. Tojik shoirlarining so‘zlariga bir qator qo‘shiq va romanslar yaratdi. 1945 yili Tojikiston Davlat madhiyasini yozish uchun ko‘rik-tanlov e’lon qilindi. Mazkur tanlov uchun boshqa kompozitorlar qatorida S.Yudakov ham A. Lohutiy so‘ziga madhiya yozdi. S.Yudakovning musiqasi tanlab olinib tasdiqlandi, hozirga qadar so‘zi o‘zgartirilgan holda bu madhiya jaranglab kelmoqda.

Skripka, violonchel va fortepiano uchun «Syuita» (1946 y.); ikkita fortepiano uchun «Syuita» (1948 y.); simfonik orkestr uchun «Tantanavor uvertyura» (1949 y.); torli kvartet uchun «Syuita» (1949 y.); Navoiy so‘ziga «Basandast» (1949 y.) romans, M.Mirshakar so‘ziga «Alla» va «Yangi g‘alabalar uchun» qo‘shiqlar, shoir M.Tursun



so‘ziga xonanda, xor va simfonik orkestr uchun «O, qiz bola» qo‘shig‘i kabi turli janrlarda bastalagan bu asarlar o‘lkamizni zamonaviy musiqa san’atiga yana bir iste’dodli, zabardast kompozitor mustaqil ravishda kirib kelganidan darak bergan edi. S.Yudakov asarlarida o‘zbek va tojik xalqari musiqasining ta’siri bo‘lsada, ammo o‘z uslubiga xos asarlar yaratishga e’tibor bergani ham yaqqol seziladi. 1948 yilda o‘tgan O‘zbekiston bastakorlar uyushmasining urushdan keyingi birinchi qurultoyida S.Yudakov hay’at a’zosi va simfonik musiqa komissiyasining raisi va o‘sha yili Moskvada o‘tgan Kompozitorlar uyushmasining birinchi qurultoyida taftish komissiyasining a’zosi etib saylandi. Kelgusida ham to umrining oxirigacha mazkur faxriy lavozimlarga saylanib keldi. 1951-53 yillarda S.Yudakov O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi hay’atining mas’ul kotibi bo‘lib ishladi.

S.Yudakov mahoratining badiiy jihatdan etilib borishi muhim davri 50-80-yillarga to‘g‘ri keladi. Bu davr uning uchun yangi sinovlar va ijodiy yutuqlar davri bo‘ldi. Qat’iy ichki intizomga ega bo‘lgan kompozitor, shu vaqt orasida o‘z ustida ishlab, professional kompozitorlik yozish texnikasini mukammal ravishda o‘zlashtiribgina qolmay, ajoyib badiiy yuksak musiqiy asarlar yaratishga muyassar bo‘ldi. Yaxshilik, ezgulik, birodarlik, do‘stlikni ulug‘ladi. Ezgu orzu-umidlar bilan xalqlarni safarbarlikka da’vat qildi. Kelajakka katta ishonch bilan qaradi. Bular uning asarlariga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardir. Bu o‘rinda A.Muxtor so‘ziga yozilgan «Jon O‘zbekiston», «Mehnat shodligi», G‘.G‘ulom so‘ziga «Qirg‘iziston paxtakorlariga», Sh.Rashidov so‘ziga «Dugonalar», «Olamda gullar yashar», T.To‘la so‘ziga «Karnaval valsi», A.Surkov so‘ziga «Hindi-rusi bxay-bxay», «Tinchliksevarlar marshi», kabi jozibali, jo‘shqin qo‘shiqlar fikrimizning dalilidir. Ayniqsa, bu o‘rinda kompozitorni 1950 yili G‘.G‘ulom so‘ziga yozgan, 1951 yilda esa Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan 6 qismli «Mirzacho‘l» nomli vokal-simfonik syuitasi; 1955 yilda T.To‘la so‘zlariga yozilgan: «Mening Vatanim» 4 qismli kantata, «Visol» (1965 y.) vokal poemalar, H.G‘ulom so‘ziga yozilgan «Muborakbod» 5 qismli kantata (bolalar xor jamoasi ham qatnashadi, 1972 y.), Mirtemir so‘ziga yozilgan «Alyor» vokal xoreografik solist, xor va raqs jamoalari uchun (1972 y.), E.Vohidov so‘ziga «O‘zbekiston» nomli solist, xor va simfonik orkestr uchun poema-kantata (1973 y.),

T.To'la so'ziga «G'alaba» nomli oratoriya (1975 y.) yorqin misol bo'la oladi. Shu nomli 1945 yilda yozilgan musiqasi asosida yaratilgan mazkur oratoriya birinchi gal Navoiy nomidagi opera va balet jamoasi sahnasida ko'tarinki ruhda muvaffaqiyatli ijro etildi. Shuni aytib o'tish joizki, 50-70 yillarda respublikada har yili ommaviy xor, qo'shiq bayramlari o'tkazilar edi. Bayramni o'tkazishda xor jamoalarining birlashmasidan tashkil topgan 50 minglik xor, boshqa kompozitorlarning asarlari qatorida S.Yudakovning «Mirzacho'l», 1955 yildan boshlab «Mening Vatanim» asarlari muntazam ijro etilar edi. 1972 yildan boshlab «Alyor» vokal-xoreografik syuita ham eng ko'p ijro etiladigan asarlar qatoridan munosib o'rin oldi.

O'zbekistonning atoqli kuychisi, kompozitor S.Yudakovga, yuqorida zikr qilinganlar bilan bir qatorda eng katta shuhrat keltirgan asari «Maysaraning ishi» nomli birinchi o'zbek komik operasi bo'ldi. 1958 yilda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat katta akademik opera va balet teatrida sahna yuzini ko'rgan mazkur opera teatrining asosiy repertuarlaridan biri bo'lib, hozirga qadar ijro qilinmoqda. Hamzaning shu nomli komediyasi asosida S. Abdulla va M. Muhamedovlar librettosini tayyorlashgan. Bu opera 1959 yili Moskvada o'tgan O'zbekiston adabiyot va san'ati 10 kunligida Katta teatrda sahna yuzini ko'rgan. «Maysaraning ishi» musiqa jamoatchiligi orasida juda katta shov shuvga aylanib ketdi. Shuni aytish joizki, butun dunyoda yaratilgan eng mashhur operalar to'g'risida, tanlangan 100 opera nomli kitobda S.Yudakovning «Maysaraning ishi» operasi ham tilga olingan. Mazkur opera birgina kompozitorga emas, butun O'zbekistonning zamonaviy musiqiy madaniyatiga ham shuhrat keltirdi.

S.Yudakov zamonaviy o'zbek professional musiqa tarixida o'ziga xos o'ringa ega. U ko'p qirrali ijodiy faoliyati bilan O'zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanish jarayoniga ulkan hissa qo'shdi va boy musiqiy meros qoldirdi. Uning buyuk xizmatlari ordenlar, bir necha medallar bilan, «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» va «O'zbekiston xalq artisti» faxriy unvonlar bilan taqdirlangan. S.Yudakov Davlat va Respublika davlat mukofotlarining sovrindori.



# Hidoyat kupletlari

Sulaymon Yudakov musiqasi








f
mp
mp





Topshiriqlar

1.Kuyni notasini daftarga chiroyli qilib ko‘chiring!

2.Kuyni bastakori haqida ma’lumot bering!

3.Kuyni sur’ati, o‘lchovi, al’teratsiya belgilari, diapazoni, dinamik belgilarini esda saqlang va ijro qilb kuylang!

## 11-MASHG‘ULOT: N.NORXO‘JAYEV ASARLARINI O‘RGANISH

**Reja:**

1. Talabalarni bastakor N.Norxo’jayev hayoti va ijodi bilan tanishtirish.
2. “*Yulduzlarmiz, yulduzlar*” kuyini o‘rgatish.

### NADIM NORXO‘JAYEV
### (1947)



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori, kompozitor N. Norxo‘jayev O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga 1978 yili qabul qilindi. U o‘zining jozibali musiqiy asarlari, ayniqsa, estrada va bolalar uchun yaratgan qo‘shiqlari bilan el-yurt hurmatiga sazovor bo‘ldi.

Norxo‘jayev Nadim Qodirovich Toshkentda, 1947 yilning 24 dekabrida ziyoli oilada dunyoga keldi. Nadimning ota-onalari o‘g‘illarini musiqaga qiziqishini sezib, umumta’lim maktabining 5-sinfidan R.Glier nomidagi maxsus musiqa maktab-internatiga berdilar va bu yerda tanbur chalishni o‘rgana boshladi. Nadimning musiqa nazariyasi va bastakorlikka qiziqishi, qobiliyatini inobatga olgan holda 1963 yili Hamza nomidagi musiqa bilim yurtiga o‘tkazishadi. Mashhur kompozitor R.Vildanovdan musiqa sirlarini o‘rgandi va 1967 yili simfonik orkestr uchun bastalagan «Syuita»si bilan a’lo baholarga o‘qishni bitiradi. O‘sha yili Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o‘qishga kirdi. Bu oliy dargohda N. Norxo‘jayev kompozitorlik mutaxassisligidan G.Mushel, cholg‘ulashtirishdan A.Kozlovskiydan saboq oldi. 1972 yili N. Norxo‘jayev imtiyozli diplom bilan konservatoriyani bitirdi va Bekobod musiqa bilim yurtiga ishga yo‘llanma oldi. Harbiy xizmatni o‘tab yurgan davrda N. Norxo‘jayev vokal-cholg‘u estrada ansamblini tashkil qilib, konsertlar bera boshladi. Ansamblning repertuari uchun yosh kompozitor qo‘shiqlar yaratdi. Uning faoliyatida qo‘shiq janriga ko‘proq ahamiyat berilishining sababi shu bo‘lsa kerak.

Kompozitor N. Norxo‘jayev mehnat faoliyatini talabalik davridan boshladi. U 1968-1972 yillarda bolalar musiqa maktabida, 1972-1975 yillari Bekobod musiqa bilim yurtida, armiya safidan qaytganidan so‘ng, yana musiqa maktabida o‘qituvchi va o‘quv bo‘limi mudiri bo‘lib ishladi. 1975-1976 yillarda «Melodiya» firmasining ovoz yozish studiyasida bosh muharrir vazifasida ishladi. 1976-1994 yillarda A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining Partitura o‘qish va cholg‘ulashtirish kafedrasida o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, 1993 yildan dotsent, ayni paytda 1996-1998 yillarda Yu. Rajabiy nomidagi Toshkent pedagogika bilim yurtida o‘qituvchi, 1998 yildan buyon davlat konservatoriyasi estrada ijrochilik kafedrasi mudiri, 2003 yildan professor lavozimida ishlab kelmoqda.

N.Norxo‘jayev talabalik chog‘ida fortepiano uchun 3 ta pyesa, 4 ta prelyudiya, 2 ta variatsiya, sonatina, «Luqmalar» nomli miniaturalar turkumi, so‘zsiz qo‘shiq, fortepiana uchun 2ta sonatina, skripka va fortepiano uchun pyesa, torli kvartet, fortepiano va simfonik orkestr uchun «Kontsertino», 4 qismli simfonik syuita, 1 qismli simfoniya va bir necha qo‘shiqlar yaratdi. «Kontsertino» 1970 yili «Bahor» kontsert zalida ijro etilib, olqishlarga sazovor bo‘ldi. Fortepiano uchun yozgan 2 ta prelyudiya, so‘zsiz qo‘shiq va 8 ta miniaturalari 1977 yilda «Melodiya» firmasida plastinkaga yozildi, «Pesa»ning notasi esa 1974 yili chop etildi.

N. Norxo‘jayevning ijodida qo‘shiq ustuvor ahamiyat kasb etadi. U zamondosh shoirlar bilan hamkorlikda, turli mavzularda, 100 dan ortiq estrada va bog‘cha bolalari va maktab o‘quvchilariga qo‘shiqlar yaratdi. Yosh bastakorning bolalar uchun 1975 yilda yozgan «Hakkalar» (N. Orifjonov so‘zi) ilk estrada qo‘shig‘i endigina tashkil topgan «Paxtaoy» nomli bolalar estrada-vokal cholg‘u ansambli ijrosida mashhur bo‘lib ketdi. Bundan ilhomlangan kompozitor bolalar va o‘spirinlar uchun ko‘plab qo‘shiqlar yaratdi. Jumladan, «Yaxshi bola», «Oltin paxtam, oppog‘im», «Salom bergan bolalar», «Yulduzlarmiz, yulduzlar», «Xoh o‘qishda, xoh ishda», «Gullar manim kulganim», «Bog‘cha opa, bo‘lmang xafa», «Kitob qo‘limda», «Bobo xo‘roz», «Xumo qushi», «Varragim», «Olmalar» (P.Mo‘min so‘zlari); «Gijinglagan toychog‘im», «Sayyoraxon», «Kichik chegarachi» (M.Abdushukurova so‘zlari).

O‘zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi «Bulbulcha» va bolalar xori uchun ham ko‘pgina qo‘shiq yaratib berdi. Ular orasida: «Eng maza, eh maza», «Yod olamiz, shodlanamiz», «O‘ynasangchi, tipratikan» (P.Mo‘min so‘zi), jo‘rsiz xor uchun 7 qismli, shoir A.Muxtor so‘ziga bolalar xori uchun «Hafta» kantatasi; shoir E.Vohidov so‘ziga «Daraxtlar suhbati» xor syuitasi yoki o‘zbek xalq qo‘shiqlarini xor uchun qayta ishlagan: «Pashsha g‘ingg‘ing», «Bozor bayrami», «Osmondagi oy», «Chori chambar», «Kovushim», «Boshginam og‘riydi», «Oq sholi, ko‘k sholi», «Chuchvara qaynaydi», 1993 yilda R.Tolib so‘ziga kichkintoylar uchun yozgan to‘plamga quyidagi qo‘shiqlar kiritildi: «Halima va Salima», «Birinchi qor», «Toshbaqa», «Shalola», «Qilichmi,



to‘qmoq», «Bir, ikki, uch...», «Shamoljon», «Dangasa», «Soat qo‘shig‘i». Bularning hammasi bolalarni ma’naviy-estetik tarbiyalashda muhim rol o‘ynamoqda.

Shuni aytish joizki, Nadim Norxo‘jayev zamonaviy estrada qo‘shiqchiligiga katta e’tibor berib kelmoqda. U estrada xonandalari va turli vokal-cholg‘u estrada ansambllariga rang-barang, jozibali qo‘shiq va cholg‘u kuylar yaratib, ularning repertuarlarini boyitishga ko‘maklashmoqda. Masalan, uning «Dilda bahor» (M.Qoriev so‘zi), «Seni zor etgandim» (M.Mirzayev so‘zi), «Chavandoz bir yigit bor» (S. Qo‘qonboev so‘zi), «Yor yo‘li» (T.To‘la so‘zi), «Ishq asiri» (Z.Obidov so‘zi), «Yigitlar tor chertsalar» (E.Oxunova so‘zi), «Yor menga uzuk taqdi», «Vafodan so‘rarding», «Yeturmiz visoliga» (P.Mo‘min so‘zi), «Qora ko‘zim», «Ko‘ngil bog‘lasang», «Nikoh uzugi» (N.Narzullayev so‘zi), «Yoshimni so‘rama» (S. Zunnunova so‘zi), «Sening sehring bor» (O.Mo‘min so‘zi), «Jannatmakon diyor bu» (Sh.Dadash so‘zi) kabi qo‘shiqlari respublikamizda taniqli ijrochilar repertuaridan joy olib, radio oltin fondidan o‘rin olganlar. Estrada qo‘shiqchiligini rivojlantirishda qo‘shgan hissasi uchun 1981 yili O‘zbekiston Yoshlar mukofoti bilan taqdirlangan. Uning qo‘shiqlari «O‘zbekiston— Vatanim manim» respublika tanlovlarida sovrinli o‘rinlarni oldi.

N.Norxo‘jayev ijodida turli janrlarda bastalagan yirik shakldagi musiqiy asarlar ham mavjud. Ular orasida: «Simfonietta» (1979 y.), simfonik orkestr uchun 2 ta uvertyura (1978, 1984 y.), kamer simfonik orkestr uchun «Miniatyuralar» (1977 y.), fortepiano va simfonik orkestr uchun «Kontsertino» (1984 y.), simfonik orkestr uchun «Shodiyona» uvertyurasi, kamer simfonik orkestr uchun 3 ta pyesa (1976 y.); vokal-simfonik orkestr uchun «Mening o‘lkam» syuitasi (1982 y.), «Vatan yoshlari» poetoriya. O‘zbek xalq cholg‘u orkestri uchun: «Bolalar syuitasi» (1988 y.), «Rondo» (1981y.). Estrada-simfonik orkestri uchun: «Navro‘zi olam» syuitasi (1995 y.), «Aziza» arab kuyi asosida (1997 y.), kamer-cholg‘u orkestri uchun «So‘g‘diyona» syuitasi (1996 y.), damli cholg‘u orkestr uchun «Marsh» (1979 y.), va «Quvnoq bolalar» marshi (1988). (P.Mo‘min pyesasi), Farg‘ona teatri 1981 yili qo‘yilgan «Ona bolam deydi, bola onam deydi» hamda Muqimiy nomidagi musiqali teatrida 1985 yili qo‘yilgan «Tuyaqush boyqush» bolalar spektaqllariga, Respublika yosh tomoshabinlar teatri uchun «Jo‘jalarim», «Ajoyib Urug‘» spektaqllariga musiqa bastalagan.

N. Norxo‘jayev O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasida qo‘shiq sho‘’basi raisi, respublikamizda o‘tkazilayotgan turli ko‘rik-tanlovlarida jyuri hay’atlarida faol qatnashib kelmoqda. U respublika «Ofarin-2000» ko‘rik-tanlovining sovrindori. 1999 yili u «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi» faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

# Yulduzlarmiz, Yulduzlar

Nadim Norxo'jayev musiqasi

**Asta-sekin**
















Topshiriqlar

1.Kuyni notasini daftarga chiroyli qilib ko‘chiring!

2.Kuyni bastakori haqida ma’lumot bering!

3.Kuyni sur’ati, o‘lchovi, al’teratsiya belgilari, diapazoni, dinamik belgilarini esda saqlang va ijro qilib kuylang!



## 12-MASHG‘ULOT: *G‘.QODIROV ASARLARINI O‘RGANISH*

**Reja:**

1. Talabalarni kompozitor G’.Qodirov hayoti va ijodi bilan tanishtirish.
2. “Raqs” kuyini o‘rgatish.

### G‘ofur QODIROV
### (1917-1985)



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, dotsent, kompozitor G‘ofur Qodirov ijodi, o‘qituvchlik va jamoat faoliyati bilan o‘zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. U yaratgan jozibali qo‘shiqlar, simfonik va sahna musiqasi, ayniqsa, bolalar uchun yaratgan asarlari zamonaviy musiqa san’atimizni boyitdi.

G‘ofur Qodirov 1917-yil 1-fevralda Toshkent shahrida bog‘bon-dehqon oilasida tug’ildi. Yetti yoshidan mahalladagi eski maktabda o‘qidi. 1928-yil 54-umumta’lim maktabining 6-sinfni bitirdi. 1933-yilda O‘rta Osiyo san’at maktabiga o‘qishga kirib, 1936-yil bitirdi. Ta’lim olgan yillarida badiiy havaskorlik to‘garaklari, xor jamoasiga qatnashdi va o‘zbek xalq cholg‘ulari ansamblida dutor va tanbur chertishni o‘rgandi.

1936-yili u Toshkent davlat to‘qimachilik institutiga o‘qishga kirdi. Mazkur institutning badiiy havaskorlik xori bilan 1937-yilda o‘tkazilgan olimpiadada ishtirok etdi. Shundan keyin G‘ofur Qodirov musiqa bilan jiddiy shug‘ullanishga qaror qildi. O‘sha yili uning musiqa qobiliyatini sezgan kompozitor Nikolay Mironov maslahati bilan Toshkent davlat konservatoriyasining tayyorlov bo‘limiga o‘qishga kirdi. 1940-yili kompozitorlik mutaxassisligi va cholg‘ulashtirish bo‘yicha ta’lim olib, 1945-yil konservatoriyani muvaffaqiyatli bitirdi.

O‘sha yili Hamza nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtiga musiqa nazariyasi fanidan dars berishga yo‘llanma bilan yuborildi. 1959-yili u cholg‘ulashtirish fanidan dars berish uchun konservatoriyaga taklif qilindi va 1969-yili dotsent unvoniga sazovor bo‘ldi.

1971-1975-yillarda O‘zbekiston bastakorlar uyushmasi hay’atining mas’ul kotibi lavozimida ishladi. Yillar davomida G‘ofur Qodirov pedagogik va jamoatchilik faoliyatining birligida ijod qilib, turli shakl va janrlarda fortepiano uchun pyesalar: “Rondo”, “Raqs”, “Syuita”, “Sonata”, “Prelyudiya va opera”, violonchel va fortepiano hamda klarnet va fortepiano uchun pyesalar, torli kvartet, simfonik orkestr uchun “Marsh”, “Syuita”, “Simfoniyetta” fortepiano jo‘rligida Navoiy g‘azallari asosida “G‘azal” romansi, “Mard yigit” qo‘shig‘i kabi asarlari

yaratdi. Bolalar teatrlarida sahna yuzini ko‘rgan “Qari chol va bo‘ri” nomli spektaklga 1944-yil musiqa bastaladi.

O‘ziga xos uslubda ko‘proq ovoz uchun simfonik, vokal-simfonik, estrada, xalq cholg‘ulari orkestri, ayniqsa, bolalar uchun turli shakl va janrlarda ko‘plab asarlar yaratdi. Shuni aytish joizki, u o‘z ijodiy faoliyatining hamma davrlarida yakkaxon xor jamoalari va estrada guruhlariga qo‘shiqlar bastalashga ko‘proq e’tibor berdi. Uning qo‘shiqlari ohangdorligi, dilkashligi, hayotiyligi, sevgi-muhabbatni keng qamrab olganligi bilan ajralib turadi va davr nafasi yaqqol sezilib turadi. Masalan: “O‘zbekistonim”, “O‘lkamga”, “Yoshlar marshi”, “Mirzacho‘l”, “Oq oltin taronasi”, “Do‘stlik festivali”, “Paxta”, lirik estrada qo‘shiqlaridan: “Mirzacho‘l yor-yori”, “Koyimang oyijon”, “Go‘zal Toshkent” va boshqalar.

Shuningdek, bolalar uchun yaratgan qo‘shiqlari nota to‘plamlarida chop etildi: “Maktabjon - oftobjon”, “Baxtli avlod”, “O‘ynab ber”, fortepiano uchun pyesalar va “O‘zbek raqslari” to‘plamlari nashrdan chiqdi. Kompozitor turli cholg‘u ansambli, orkestr, yakkaxon, ansambl va xor uchun “Maktabjon-oftobjon” IV qismli vokal-simfonik syuita, “Biz yosh o‘qituvchilar IV qismli kantata”, “Oq oltin”, “Biz istiqlol egasimiz” V qismli vokal-simfonik syuitasi, “Dangasalik - kasallik”, “Ota-onalarga”, “Bobomlar bog‘bon”, “Ona qo‘llari”, “Gunashfa”, “Laylak” kabi qator qo‘shiqlarni yaratdi.

Kompozitor G‘ofur Qodirov O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan.



## Raqs

G'ofir Qodirov musiqasi








# Raqs

G'ofur Qodirov musiqasi









Topshiriqlar

1.Kuyni notasini daftarga chiroyli qilib ko'chiring!

2.Kuyni bastakori haqida ma'lumot bering!

3.Kuyni sur'ati, o'lchovi, al'teratsiya belgilari, diapazoni, dinamik belgilarini esda saqlang va ijro qilb kuylang!

## TALABALAR O'RGANISHI UCHUN QO'SHIMCHA ASARLAR

### Sharob

O`zbek xalq kuyi






### Bahor nafasi

Bekmurod Nazarov musiqasi



# Tamanno

Muhtorjon Murtazoyev musiqasi

O'rtacha tez








# Otmagay tong

To'xtasin Jalilov musiqasi








# Qoradali

O'zbek xalq kuyi
Sulton Hayitboyev qayta ishlagan

**Allegretto**







# Dilrabo

Muhammadjon Mirzayev musiqasi








# Usmoniya

**Marsh sur'atida**

O'zbek xalq kuyi







# Rajabiy

O'zbek xalq kuyi








# Zavqim kelur

Muhammadjon Mirzayev musiqasi








# Qalb sadosi

**Allegro**

Abduhoshim Ismoilov musiqasi
Orif Xakimov notaga olgan








# Farg'onacha

**Allegro moderato**

O'zbek xalq kuyi








# Abdurahmonbegi

**Allegretto**

O'zbek xalq kuyi
Orif Xakimov notaga olgan








# Sharq go'zali

**Allegretto**

Xolmurod Nazarov musiqasi











# Nasri segoh

O'zbek xalq kuyi

**Shoshilmasdan**








# Olmani otdim

O'zbek xalq kuyi








# Olmani otdim uforisi

O'zbek xalq kuyi








# Dil izhori

Xolmurod Nazarov musiqasi








# Tug'yon

Xolmurod Nazarov musiqasi








# Shodiyona

Abduhoshim Ismoilov musiqasi
Xolmurod Nazarov notaga olgan








# Xurram

Ariel Boboxonov musiqasi
Bahodir Mirfayozov notaga olgan

**Allegretto moderato**








# Surxoncha

*Xolmurod Nazarov musiqasi*







# Jayhun

Xolmurod Nazarov musiqasi







# Dildor nag'masi

X. Nazarov musiqasi









# Sog'inch

Xolmurod Nazarov musiqasi








# Duxtari zebo

**Allegro**

Xolmurod Nazarov musiqasi











# Tong nafasi

Xolmurod Nazarov musiqasi








## GLOSSARIY

**Akkord** - *tertsiya bo'yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo'lgan uch yoki undan ortiq tovushning bir vaqtda qo'shilib eshitilishi*

**Alteratsiya** – *lotincha* ***alterare*** *so'zidan olinib, "o'zgartish" ma'nosini beradi*

**Alteratsiya belgilari**-*tovushlarni ko'tarish yoki pasaytirish uchun ishlatiladigan belgilar*

**Anshlag** — *keyingi asosiy nota cho'zimi hisobiga ijro etiladigan qo'sh forshlag*

**Bekar** (§) – *alteratsiya belgilarini bekor qilish uchunishlatiladigan belgi*

**Bemol** (b) - *tovushni yarim ton pasaytiruvchi belgi*

**Chizilgan juft mordent** - *pastki yordamchi tovush bilan ijro etiluvchi - oddiy mordentni takrorlanishidan iborat melodik shakl*

**Chizilgan oddiy mordent** - *pastki yordamchi tovush bilan ijro qilinadigan kuy shakli*

**Chizilgan qisqa forshlag** - *kuyning asosiy tovushidan xohlagan oraliqda pastda yoki yuqorida joylashgan forshlag*

**Chizilmagan juft mordent** – *yuqoriga yordamchi tovush bilan ijro etiluvchi - oddiy mordentni takrorlanishidan iborat melodik shakl*

**Chizilmagan oddiy mordent** - *yuqorigi yordamchi tovush bilan ijro qilinadigan kuy shakli*

**Diez** – *tovushni yarim ton ko'taruvchi belgi*

**Dubl bemol** – *tovushni bir ton pasaytiruvchi belgi*

**Dubl diez** – *tovushni bir ton ko'taruvchi belgi*

**Dominanta uchtoshligi** - *major va minorning V – pog'onasidan tuzilgan uchtovushlik*

**Fermata** – *tovush cho'zimini istagancha cho'zib turish mumkinligini ko'ratuvchi belgi*

**Gamma** – *bir tonikadan navbatdagi oktavaning tonikasigacha, pog'onama-pog'ona tartibda joylashgan tovushlarning yuqorilama yoki pastlama harakati*

**Garmonik minor** - *VII pog'onasi 0,5 ton yuqorga ko'tarilgan tabiiy minor ladi.*

**Glossariy** - *(biror tekstdagi notanish, tushunilishi qiyin so'zlar lug'ati).*

**Gruppetto** - *kuydagi asosiy tovushni yuqorigi va pastki yordamchi tovushlar bilan almashishidan iborat melizmatik figura*

**Kalit alteratsiya belgilari** - *kalit yoniga yoziladigan alteratsiya belgilari*

**Kashish** - *u yoki bu barmoq bilan torni zich bosib, uni dasta bo'ylab tortgandek harakat qilinadigan, glissando yordamida tovushning pasayish tomoniga tobora bosim kuchini susaytirib boriladigan torni cho'zish bezagi*

**Liga** – *bir xil balandlikdagi tovush cho'zimlarini birlashtiruvchi belgi*

**Major uchtovushligi** – *kat.3 va kich.3 intervallarining ketma-ketligidan iborat akkord*

**Mi minor** – *Sol majorning parallel minori, bir dona fa# kalit belgisi bor.*

**Minor uchtovushligi** – *kich.3 va kat.3 intervallarining ketma-ketligidan iborat akkord*

**Musiqa bezaklari (melizm)lar** - *kuyning asosiy tovushlarini bezovchi ayrim ohangdor kuy shakllari*

**Melodik minor** – *yuqorilama harakatda VI va VII pog'onalari 0,5 ton ko'tarilgan va pastlama harakatda o'z holicha qaytgan tabiiy minor ladi*

**Molish** - *tovush balandligini legato yordamida 1/2 tonga nisbatan kamroq ko'tarish yoki tushirish yo'li bilan vujudga keltiriladigan bezak*

**Nuqta** – *nota va pauzalarning o'ng tarafiga qo'yilib, cho'zimini oshiradi*

**Nola** – *skripka, violonchelga taalluqli odatdagi vibratsiyadan ijro etish uslubi, jarangdorligi, tembri bilan tamomila farq qiladigan o'ziga xos vibrato (tebranish)*

**Oddiy mordent** - *uchta tovush (asosiy tovush, undan sekunda yuqorida yoki pastdagi yordamchi tovush va asosiy tovushni qaytarilishi)dan iborat melizmatik shakl*

**Parallel tonalliklar** - *kalit belgilari bir xil bo'lgan va umumiy tovush tarkibiga hamda tonika uchtovushliklarida ikkitadan umumiy tovushga ega bo'lgan major va minor tonalliklari*

**Peshrov** – *(oldinda yuruvchi, boshlovchi) maqomlarning mushkilot bo'limida keladigan kuylardan biri.*

**Perepyolochka** – *(bedana) Belarus xalq qo'shig'i*

**Qochirim** - *barmoqni torga ohista, sal tegib ketishi bilan, ammo bosmasdan ijro etiladigan yuzaki forshlag*

**Sinkopa** - *kuchli hissani kuchsiz hissaga ko'chishi*

**Subdominanta uchtovushligi** - *major va minorning IV – pog'onasidan tuzilgan uchtovushlik*

**Tasodifiy alteratsiya belgilari** - *notalar oldiga qo'yiladigan, o'z uchini faqat shu oktavadagi nota uchun va bir takt davomida saqlaydigan alteratsiya belgilari*

**Tonallik** - *ma'lum bir tonikaga va o'zining doimiy alteratsiya belgilariga ega bo'lgan, lad tovushlari o'rnashgan joy, balandlik*

**Transpozitsiya** - *musiqa asarini bir tonallikdan boshqa tonallikka ko'chirilishi*

**Trel** – *asosiy tovushni yuqorigi yordamchi tovush bilan birga maksimal darajada tez almashib turishidan iborat melizmatik figura*

**Tonika uchtovushligi** – *major va minorning I-pog'onasidan tuzilgan uchtovushlik*

**Uchtovushlik** - *tertsiya bo'yicha joylashgan, uchta tovushdan iborat akkord*



**Uzun forshlag** - *kuyning asosiy tovushidan sekunda yuqorida yoki pastda joylashgan va asosiy tovush cho'zimining yarmiga muvofiq tarzda ijro qilinadigan forshlag.*

**"Changqovuz"** Ikki lab orasida, tishlar orqali ohista tishlab, o'ng qo'l barmoqlari bilan chalinadigan tilchali chertma sozdir. Temirdan qilingan aylanma ramka oralig'ida po'lat til o'rnatilgan, chalganda barmoqlar bilan tilni harakatga keltirib, to'lqinlantiriladi. Og'iz bo'shlig'i tovush beruvchi rezonans xizmatini bajaradi va oktava hajmi oralig'ida tovush beradi. Surxondaryo viloyatida chanqovuzning ikki turi, suyak chanqovuz va temir chanqovuz qo'llanilgan. Hozirgi kunga kelib, faqatgina temir chanqovuzdan foydalanilib kelinmoqda.

**"Sibizg'a"** Qadimuy milliy-an`anaviy cholg'u. Sibizg'a qamishdan yasalgan nay turidagi cholg'u bo'lib, uning kelib chiqishi Surxondaryo vohasidagi cho'ponlarga borib taqaladi, yani sibizg'aning yaratuvchilari cho'ponlardir. Uning ikkinchi nomi, xalq orasida —Sibiziq deb ham yuritiladi. Sibizg'aning 3-4 ta teshik-bosuvchi pardalari bor.

**"Do'mbira"** Do'mbira torli-tirnama o'zbek xalq milliy-an'anaviy cholg'u sozidir. Dutor tuzilishidagi Do'mbirada ipak yoki ichakdan qilingan ikkita tor bo'lib, bu torlar ko'proq kvarta oralig'ida sozlanadi. Do'mbira dastasiga bog'langan yoki doimiy pardalar bo'lmaydi. Do'mbirada baxshilar o'z dostonlariga jo'r bo'ladilar. Do'mbiraning tuzilish shakli, dastasi, ikkita tor tikilishi va nihoyat, chalinishi bilan, Dutorni eslatadi. Do'mbiraning torlari Dutordek kvartya, ba'zan kvintaga sozlanadi, lekin sozning aniq balandligi ijrochining sozlashiga bog'liq bo'ladi.

**"Akkompanemet"** frantsuzcha akkompagnement, akkompagner so'zlaridan olingan bo'lib, jo'r bo'lish ma'nosini anglatadi. Ashula aytganda yoki biror cholg'u sozida chalganda unga jo'r bo'lishdir. Ashulaga pianino, foptepiano, xalq cholg'u asboblari, turli ansambllar: trio, kvartet, kvintet va orkestrlarda jo'r bo'lish mumkin. Akkompanemet yakkaxon ashulachi yoki cholg'uchiga garmonik va ritmik hamohang bo'lib, musiqa asarining badiiy darajasini chuqurlashtiradi.

**"Balabon"** - Bulamon, bolaban, bolaman so'zlari ma'nosidadir. Qadimiy o'zbek milliy xalq cholg'u asboblaridan bo'lib, ko'proq Xorazmda tarqalgan. Odatda tut yog'ochdan yasalib, boshdan-oxiriga qadar parmalab ishlab chiqilgan. Shakli surnayga o'xshash, lekin undan biroz kichik, yani uzunligi taxminan 300 millimetrdir. Balabonning yuqori qismiga o'rnatilgan til qamishdan tayyorlanib, qirqiladi. Balabonda sakkizta teshik mavjud, buning yettitasi ust va biri orqa tomondadir. Orqa tomondagi teshik yuqorida bo'lib, chap qo'lning bosh barmog'i bilan bekitiladi. Tovushqatori diatonik, kichik oktavadagi Re va Re-bemoldan boshlab uch oktavaga yaqinlashib boradi. Balabonda yakka ijro qilish mumkin bo'lganidek, turli ansambl va orkestrlarda ham chalinadi. Balabon qamishdan

yasalgan Dog'iston xalq cholg'u asbobi hamdir. Ijro etiladigan tomoni Til qilinib kesiladi. Umumiy uzunligi 150-200 millimetrdir. **"Bir turdagi musiqa cholg'u sozlari".** Turli katta-kichiklikda bo'lib, bir xil tuzilishda va ijro qilish yo'li ham bir xil bo'lgan cholg'u sozlaridir. Bularning tembrida katta o'xshashlik bo'lsa ham tovushning balandlik va kuch darajasi turlichadir. Simfonik orkestrdagi fleyta, goboy, klarnet, fagot, truba, trambon va skripkalar rus xalq cholg'u asboblaridagi do'mbira, balalayka, guslilar, o'zbek xalq cholg'u sozlaridagi g'ijjak, dutor va boshqa cholg'u sozlarining katta-kichik turlari bor. Bu cholg'u sozlari turlarining o'ziga xos nomlari ham bor. Masalan, skripka turlari: skripka, alt, violonchel va kontrabas, dombra turlari: pikkolo, prima, sekunda, alt, tenor, bas va kontrabaslardir.

Takomillashtirilgan dutor va g'ijjak turlari ham shu kabi nomlar bilan ataladi.

**"Doira"** – O'zbek xalqida dapp, childirma, chirmanda deb ataladi. O'zbek, tojik va uyg'ur xalqlari orasida keng tarqalgan, tovush balandligi noaniq urma cholg'u sozidir. Diametri taxminan 400 millimetr bo'lgan, gardishi ilgarilari tok zangidan qilingan, so'nggi vaqtlarda yog'ochni egib yoki kichik yog'och bo'laklarini bir-biriga ulab yasaladi. Doirada ikkita asosiy tovush bor. Biri past bum – Xorazmda gup, ikkinchisi baland bak Xorazmda toq deb yuritiladi.

**"Doira zarblari"** - xonanda, sozanda, xalq cholg'u sozlari yoki raqsga jo'r bo'lib chalinadigan doira zarblari-usullari bo'lib, ular turlicha bo'ladilar: Raqs uchun chalinadigani, bunda doira usullari ancha murakkab bo'lib, Yakka raqs, Qo'sh raqs, Zang va shunga o'xshash nomlarga ega.

**"Dutor"** - tojikchadan Du -ikki, tor ma'nosini anglatib, o'zbek, shuningdek, tojik, turkman va uyg'ur xalqlari ortasida keng tarqalgan torli-tirnama cholg'u sozidir. Dutor ikki qismdan dasta va kosadan iborat bo'lib, bularni birlashtiruvchi qismni bo'g'iz deb ataladi. Dutor kosasi o'yma yoki qovurg'achalarning birlashganidan qilinishi mumkin. Dutor kuylari:Rohat, To'rg'ay, Dutor bayoti va boshqalar.

**"Dutor alt"** - dutorning kichraytirilgan turi bo'lib, uning qopqog'I tut o'rniga archa daraxtidan qilinadi. Ipak torlar o'rniga ichak tor tortiladi. Pardalar dastani o'yib, xromatik holda doimiy o'rnashtirilgan. Torlar kvarta bo'yicha birinchi oktavadagi Mi va Lyaga sozlanadi. Notalar skripka kalitida, eshitilishiga nisbatan oktava yuqorida yoziladi.

Hajmi kichik oktavadagi Mi, Lyadan birinchi oktavadagi Sol va ikkinchi oktavadagi Doga qadardir.

**"Dutor bas"** - dutorning katta qilib ishlangan turi bo'lib, uning to'rtta tori bo'ladi, ular kvarta bo'yicha, to'rtinchi tor katta oktavadagi Do, uchinchi tor katta oktavadagi Sol, ikkinchi tor kichik oktavadagi Re va birinchi tor kichik oktavadagi Lyalarga sozlanadi. Lya tori ichakdan qilingan bo'lib, qolganlari metaldandir.



Notalar eshitilishi bo'yicha, bas kalitida yoziladi. Ovoz hajmi katta oktavadagi Dodan birinchi oktavadagi Solga qadardir.

**"Dutor kontrabas"** - dutorning juda katta qilinib ishlangan turi, uning to'rtta tori bo'lib, bular kvarta bo'yicha: to'rtinchi tor kontr oktavadagi Mi, uchinchi tor kontroktavadagi Lya, ikkinchi tor kata oktavadagi Re va birinchi tor katta oktavadagi Solga sozlanadi. Ovoz hajmi kontr oktavadagi Midan kichik oktavadagi Lyaga qadardir. Notalar bas kalitida, eshitilishiga nisbatan oktava yuqoriga yoziladi.

**"Kamoncha"** – g'ijjak, skripka va bularning turli shakldagi katta-kichik xillarida tovush chiqazish vositachisi smichokdir. Kamoncha yog'ochiga ot dumining qili tortiladi va unga kanifol surtiladi. **"Karnay"** – o'zbek puflama musiqiy cholg'u sozi bo'lib, misdan yasaladi. Uzunligi ikki metrdan oshiqroq. Karnay bayramlarda, tantanali marosimlarda surnay, nog'ora, doiraga qo'shilib chalinadi. Karnayda asosiy tovushdan yuqori sof kvinta yoki kichik septima intervali chalinadi.

**"Parda"** - musiqa cholg'u sozlarining ma'lum balandlikdagi tovushlarini olish uchun chap qo'l barmoqlari bilan bosiladigan o'rni. **"Rubob"** - Osiyoning ayrim xalqlari va o'zbeklar o'rtasida qadimdan keng tarqalgan torli-tirnama cholg'u sozidir. O'rta Osiyo xalqlariga nisbatan janubiy Xitoyning Sintsyan viloyatida yashovchi uyg'urlar o'rtasida keng tarqalgan turi Qashqar rubobi deyiladi. Rubob kosasi qazma, ya'ni o'yilib, ustiga teri qoplangan, dastasiga ipak yoki ichakdan qilingan pardalar bog'lanadi.

**"Setor"** - tanbur shaklida, lekin undan kattaroq cholg'u sozi, 10-12 ta tori bor, bulardan birinchisi kuy tori hisoblanadi. Kuy tori boshqa torlarga nisbatan xarrakda bir oz balandroq, qolgan torlar esa rezonans beruvchi torlar hisoblanadi. Setor asosan kamoncha bilan ijro etiladi, ayrim vaqtlardagina noxun bilan Tanbur tarzida chalinadi.

**"Surnay"** – o'zbek xalqi musiqa san'atida keng tarqalgan qadimiy puflama yog'och cholg'u sozidir. Surnay yolg'iz, shuningdek nog'ora, karnaylar bilan ham birgalikda chalinadi. So'nggi vaqtlarda o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrida ham qo'shilmoqda.

**"Tanbur"**-O'zbekistonda, Tojikistonda, janubiy Xitoyning Sintszyan viloyatida keng tarqalgan torli-tirnama qadimiy cholg'u sozidir. Tanburning kosasi nok shaklida o'yilib yoki bir necha qobirg'alardan yopishtirilib, unga uzun dasta ulanadi. Umumiy uzunligi 1100-1300 millimetrdir. Dastasiga ichakdan qilingan parda bog'lanadi. Baland tovushlar olish uchun ichak pardalardan tashqari qopqoqqa kichik va kalta cho'plar yopishtiriladi – buni xos parda deyiladi.

**"Tor"** - sakkiz raqamiga o'xshatib yog'ochdan o'yilgan kosasiga uzun dasta o'rnatiladi. Kosa ustiga teri qoplanadi. Dastaga 22-23 ta ichak parda bog'lanadi.

**"Ud"** - Sharq xalqlarida mashhur bo'lgan cholg'u sozidir. Qadimiy musiqa nazariyalari, musiqa haqidagi asarlarda tor va tuzilishini Ud cholg'u sozi asosida tushuntirilgan. Udning milodiy I asrda ham mavjudligi aniqlangan.

**"Chang"** – O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy urma cholg'u sozi. Changning unisonga sozlangan uchtadan tori bo'lib, ovoz hajmi katta oktavadagi Sol-dan ikkinchi oktavadagi Mi-ga qadardir. Ilgari xalq o'rtasida qo'llangan Changning tovushqatori diatonik tartibda bo'lgan.



# TEST SAVOLLARI

| T/r | Savollar | Javoblar | Javoblar | Javoblar | Javoblar |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Duet ansambli tashkil qilinadi ? | To'rtta sozandadan | Uchta sozandadan | *Ikkita sozandadan | Bitta sozandadan |
| 2 | Torli urib chalinadigan cholg'u sozi | G'ijjak | Dutor | Doira | * Chang |
| 3 | Oq terakmi, ko'k terak qaysi xalq kuyi? | * O'zbek | Tojik | Qoraqolpoq | Belarus |
| 4 | Oq terakmi, ko'k terak kuyi qan-cha tovushdan tashkil topgan | * 3 | 5 | 7 | 9 |
| 5 | Yangi tanovor kuyini qaysi bastakor yozgan? | * M. Mirzayev | T. Sodiqov | F.Alimov | F. Nazarov |
| 6 | Nevaralar qo'shi-g'ini qaysi basta-kor bastalagan? | T. Sodiqov | F.Alimov | * Norxo'jayev | Sayfiddinov |
| 7 | Fasli bahor kuyining bastako-rini belgilang | * O.Nazarov Sh.Sayfiddinov | N.Norxo'jayev | Yu.Rajabiy B.Zeydman | M.Burxanov |
| 8 | Bekar belgisi nima uchun xizmat qiladi? | Tovushni yarim ton ko'tarish uchun | Tovushni yarim ton pasaytirish uchun | Tovushni bir ton ko'tarish uchun | *Ko'tarilgan yoki pasayti-rilgan al'tera-tsiya belgila-rini bekor qilish uchun |
| 9 | Rubob va rubob oilasiga kiruvchi sozlarni toping? | Rubob, dutor, fortepiano, doira | Rubob, g'ijjak, dutor, tor | *Rubob, prima rubob, afg'on rubob | Rubob, tor, qo'shnay, nay |
| 10 | Toshkentim – gulshanim kuyi- ning bastakori kim? | A.Mansurov | * Sharif Ramazanov | J. Najmiddinov | Gafur Qodirov |
| 11 | Toshkentim – gulshanim kuyi qaysi o'lchovda yozilgan | * 3/4 | 6/8 | 2/4 | 4/4 |
| 12 | O'zbek xalq kuyini belgilang | Ohangaron | * Yallama yorim | Toshkentim – gulshanim | Davra qo'shig'i |
| 13 | Eng ko'p qo'llaniladigan ikkita ladning nomlari nima? | Garmonik ma-jor va garmo-nik minor | * Major va minor | Doriy va frigiy | Lidiy va miksolidiy |
| 14 | Oftob chiqdi kuyi qasi o'lchovda yozilgan | * 2/4 | 3/4 | 6/8 | 4/4 |
| 15 | Oftob chiqdi kuyi qanday sur'atda yozilgan | * Moderato | Allegro | Grave | Shoshmasdan |
| 16 | Kvartet ansambli nechta sozanda-dan tashkil qilina-di ? | Sakkizta | Oltita | * To'rtta | Ikkita |
| 17 | Rubobning birinchi tori qaysi tovushga sozlana-di? | * Lya | Mi | Si | Lya |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | birinchi oktava | birinchi oktava | ikkinchi oktava | ikkinchi oktava |
| 18 | O`zbek xalq kuyi Farg`onachada nechta alteratsiya belgilari bor | * 3ta diyez | 4ta bemol | 2ta bekar | Alteratsiya belgisi yo`q |
| 19 | Farg`onacha kuyi qaysi sur'atda yozilgan? | * O`rtacha tez | Shoshmasdan | Jadal | Sho`x, quvnoq |
| 20 | Farg`onacha kuyining o`lcho-vini belgilang? | 6/8 | * 2/4 | 3/8 | 3/4 |
| 21 | Qashqar rubobining ilk targ`ibotchisi kim ? | Tohir Rajabov | Qabul Usmonov | Hamidullo Nurmatov | * Muhammad-jon Mirzayev |
| 22 | Yallama yorim kuyini kim qayta ishlagan? | E. Shukrullayev | * F. Vasilyev | A. Odilov | B. Gienko |
| 23 | Rubobning dasta qismida nechta parda bor? | 18 | * 24 | 22 | 20 |
| 24 | Tovush cho'zimi-ni istagancha cho'zib turish mumkinligini bildiruvchi belgi | * Fermato | Segno | Butun nota | Stakatto |
| 25 | Sol major gammasida nechta kalit belgisi bor | 3ta bemol | * 1ta diyez | 2ta bemol | Belgi yo`q |
| 26 | Vazmin sur'atni belgilang | * Lento | Sostenuto | Allegro moderato | Vivace |
| 27 | J. Sultanovning kuyini nomini belgilang | * Raqqosasidan | Sayri gullar | Intizor etma | Vatan |
| 28 | Garmonik minor nima? | IV-pog`onasi yarim ton ko`tarilgan minor | VII-pog`onasi yarim ton pasaytirilgan minor | VI-pog`onasi yarim ton pasaytirilgan minor | *VII - pog`onasi yarim ton ko`tarilgan minor |
| 29 | Garmonik re minor qaysi majorga parallel? | Re major | * Fa majorga | Si bemol majorga | Re majorga |
| 30 | Re minorda qaysi kalit belgisi bor | Fa diyez | *Si bemol | Fa, do diyez | Si, mi bemol |
| 31 | Garmonik re minorda qanday o`zgarish bo`ladi | *7-bosqich yarim ton ko`tariladi | 6-7-bosqichlar yarim ton pasaytiriladi | 7-bosqich bir ton kotariladi | 7-bosqich yarim ton pasaytiriladi |
| 32 | O`n beshtamiz besh oldik qo`shig`ining bastakori kim? | * Sh. Yormatov | T. Toshmatov | T. Rajapov | II. Akbarov |
| 33 | Dutor basda nechta sim bor? | 2 | 5 | *4 | 6 |
| 34 | Dutor bas qaysi intervalga sozla-nadi? | Prima | Tertsiya | *Kvinta | Kvarta |
| 35 | Ikki hissali o'lchov nima? | *Zarblari har bir hissadan keyin takrorlanib turuvchi o'lchov | Zarblari har ikki hissadan keyin takrorlanib turuvchi o'lchov | Bitta zarbga ega bo'lgan ikki va uch hissali o'lchovlar | Har bir hissa-si yarimtalik nota cho'zi-miga teng ikki hissali o'lchov |
| 36 | Ikkinchi chiziqda joylashgan sol kaliti | Soprano kaliti | Al't kaliti | Bas kaliti | * Skripka kaliti |



| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | qanday ataladi? | | | | |
| 37 | Birinchi rubob darsligi kitobining chop qilingan yili va muallifini belgilang | * 1963 yil F.N. Vasilyev | 1965 yil M.Mirzayev | 1969 yil Q.Usmonov | 1971 yil H.Nurmatov |
| 38 | Q.Usmonovning boshlang`ich rubob darsligi kitobi nechanchi yilda chop qilingan | * 1975 1995 | 1980 | 1955 | 2000 |
| 39 | Intervallar qisqacha qanday belgilanadi? | Intervalning ton va yarim tonlar soniga muvofiq raqamlar bilan | Lotincha harflar bilan | Al`teratsiya belgilari bilan | *Intervalning pog`onalar soniga muvofiq raqamlar bilan |
| 40 | Forshlagning turlarini belgilang | * Uzun, qisqa, qo`shaloq | Butunlik | Yarimtalik | Choraktalik |
| 41 | Dutorda nechta tor bor? | Beshta | Uchta | To`rtta | * Ikkita |
| 42 | Usmoniya kuyi-ning o`lchovini belgilang | 6/8 | 2/4 | * 4/4 | 3/4 |
| 43 | Bahor valsi kuyining bastakori kim? | * M. Mirzayev | M. Burxanov | I. Hamroyev | F. Nazarov |
| 44 | Cholg`uchilar ansamblida dutor partiyalari qaysi kalitda yoziladi? | Fa kalitda | Bas kalitda | * Sol kalitida | Do kalitida |
| 45 | Gijjak alt partiyalari qaysi kalitda yoziladi? | Skripka | * Alt | Bas | Eski frantsuz |
| 46 | Rubobning ikkinchi tori qaysi tovushga sozlanadi? | Lya birinchi oktava | * Mi birinchi oktava | Si ikkinchi oktava | Mi ikkinchi oktava |
| 47 | R. Tursunovning kuyini belgilang | * Shahlo | Shodlik | Dutorim | G`ayratli qiz |
| 48 | R. Tursunovning Shahlo kuyining o`lchovini belgi-lang | * 6/8 | 4/4 | 2/4 | 3/4 |
| 49 | Bahor valsi kuyining tempini belgilang | Allegro | Moderato | * Vals tempida | Marsh tempida |
| 50 | Re majorda nechta kalit belgisi bor ? | Ikkita bemol belgisi | * Ikkita diyez belgisi | Uchta bemol belgisi | To`rtta diyez belgisi |
| 51 | Intevallar qanday ikkita shaklda qo'llaniladi ? | Tabiiy va garmonik | Tabiiy va melodik | Tabiiy, garmonik va melodik | *Garmonik va melodik |
| 52 | Melodik lya mi-nor gammasining yuqorilama hara-katidagi 6-7- bos-qich notalarini belgilang | Do diyez Re diyez | Lya bemol Si diyez | Fa bekar, sol bekar | * Fa diyez Sol diyez |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 53 | Melodik lya mi-nor gammasining pastlama haraka-tidagi 6-7- bos-qich notalarini belgilang | Do bekar Re bekar | Lya bekar Si bekar | Fa bekar Sol bekar | * Sol bekar Fa bekar |
| 54 | Rubobning uchinchi bas tori qaysi tovushga sozlanadi? | Si ba'zan do birinchi oktava | * Si ba'zan lya kichik oktava | Si ba'zan mi ikkinchi ok-tava | Si ba'zan lya birinchi okta-va |
| 55 | Gulshan kuyining bastakorini belgilang | * M.Mirzayev | S.Yo`ldoshev | I.Hamrayev | A.Mansurov |
| 56 | Gulshan kuyining o`lchovini belgi-lang | * 2/4 | 4/4 | 6/8 | 3/4 |
| 57 | Mirza Davlat kuyini o`lchovini belgilang | 3/4 | 2/4 | * 4/4 | 6/8 |
| 58 | Kuyning ladi va tonalligi qanday qilib aniqlanadi? | Kalit va tasodifiy al`teratsiya belgilariga qarab | Kuyning boshlangan va tugallangan tovushiga qarab | Kuyga jo`r bo`luvchi akkordlarga qarab | *Barcha javoblar to`g`ri |
| 59 | Tarji navo qaysi xalq kuyi | Tojik | Uyg`ur | * O`zbek | Belarus |
| 60 | Tarji navo kuyida qaysi diyezlar bor ? | Fa diyez Do diyez | Do diyez Fa diyez | Sol diyez | Fa diyez |
| 61 | Farg`onacha rez kuyining o`lcho-vini belgilang | * 2/4 | 4/4 | 6/8 | 3/4 |
| 62 | Bir xil balandlik-dagi tovush cho'-zimlarini birlash-tiruvchi belgini toping? | Legato | Moderato | * Liga | Sforsando |
| 63 | Pauzani qandayligini belgilang | Diyez | Dubl diyez | Choraktalik | Liga |
| 64 | Orom kuyining bastakorini belgilang ? | D.Zokirov | A.Mansurov | T.Jalilov | * S.Yo`ldoshev |
| 65 | Dastaning uchi rubobning qanday qismi deyiladi ? | Shox qismi | Quloq qismi | * Bosh qismi | Kosa qismi |
| 66 | Ajam taronalari nechta taronadan iborat ? | * II | III | I | IY |
| 67 | Legato belgisi qaysi javobda to`g`ri ko`rsa-tilgan? | * Har xil notalar-ni birlashtiradi va bog`lab cha-linadi | Bir xil notalarni birlashtiradi va uzib chalinadi | Legato belgi-si qo`yilgan nota cho`zib chalinadi | Barcha javoblar to`g`ri |
| 68 | Maktabim musiqasining bastakori | * F.Nazarov | I. Hamroyev | Sh.Yormatov | A.Mansurov |
| 69 | Ajam taronalari-ning I taronasi o`lchovini belgilang | * 4/4 | 2/4 | 6/8 | 3/4 |
| 70 | Ajam taronalari-ning II taronasi o`lchovini belgilang | 2/4 | * 6/8 4/4 | 4/4 | 3/4 |
| 71 | Raqqosasidan musiqasining bastakori | * J. Sultonov | T.Alimatov | T.Jalilov | A.Ismoilov |



| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 72 | Melodik minor nima? | Yuqorilama harakatda VII va VI pog`onalari pasaytirilgan minor | Pastlama harakatda VII va VI pog`onalari ko`tarilgan minor | *Yuqorilama harakatda VI va VII pog`onalari ko`tarilgan va pastlama harakatda o`z holiga keltirilgan minor | Pastlama harakatda VII va VI pog`onalari pasaytirilgan minor |
| 73 | Melodik intervalni belgilang | * Notalar birin ketin chalinadi | Bir nechta no-talar bir vaqtda chalinadi | Notalar hohlagancha chalinadi | Notalar qo`-shib chalinadi |
| 74 | Metr nima? | Musiqa asarining bir kuchli hissadan, navbatdagi kuchli hissasigacha bo'lgan oralig'i | Hissalarining ma'lum bir cho'zimda ifodalanishi | *Kuchli va kuchsiz hissalarning bir tekisda takrorlanib turishi | Kuchli hissadan boshlangan takt |
| 75 | Minor ladining qanday turlari bor? | Garnonik | Melodik | Tabiiy | *Tabiiy, garmonik va melodik |
| 76 | Fonar belgisining vazifasini belgi-lang | Takrorlaydi | Chalinmaydi | Birinchi mar-ta chalinadi | * Ikkinchi mar-ta qaytaril-ganda fonar-dan fonarga-cha bo`lgan oralikdagi notalar chal-may tashlab o`tiladi |
| 77 | Minor ladining turg'un pog'onalari qanday akkordni hosil qiladi ? | Major sekstakkordini | Major kvartsekstak-kordini | Major uchtovush-ligini | *Minor uchtovush-ligini |
| 78 | 7-bosqichi re diyez bo`lgan minor gammasi | melodik mi major | * garmonik mi minor | Sol major | Mi major |
| 79 | Rubobning bosh qismini nimalri joylashadi? | * Quloqlari | Torlari | Pardalari | Xarragi |
| 80 | Murakkab o'lchovlar oddiy o'lchovlardan qanday farq qiladi? | Hissalar soniga ko`ra | *Kuchli va nisbiy kuchli hissalarning mavjudligiga ko`ra | Har xil o`lchovlarda hosil bo`lganiga ko`ra | Bir nechta kuchli hissalarning mavjudligiga ko`ra |
| 81 | Musiqada interval deb nimaga aytiladi? | Birin-ketin eshitilgan ikkita tovush oralig'i | Bir vaqtda eshitilgan ikkita tovush oralig'i | *Musiqada ikkita tovushning balandlik bo'yicha oraliq nisbati | Ikkita tovush orasidagi masofa |
| 82 | G`ayratli qiz kuyi qaysi notadan boshlanadi? | Do birinchi oktava | * Lya birinchi oktava | Mi ikkinchi ok-tava | Sol beshinchi oktava |
| 83 | G`ayratli qiz kuyi qanday cho`zimli notadan boshla-nadi? | * Nuqtali choraktalik | Choraktalik | Butun | Yarimtalik |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 84 | Musiqiy tovush deb qanday tovushga aytiladi? | Barcha musiqiy asboblarning tovushlariga | Sayraydigan qushlarning ovozlariga | *Aniq balandlikka ega bo`lgan tovushlarga | Jismlarning tebranishi natijasida hosil bo`lgan tovushlarga |
| 85 | Musiqiy tovush qanday xususiyat-larga ega? | Mayinlik, qattiqlik, yumshoqlik, dag`allik | Yoqimlilik, yoqimsizlik, kuychanlik | Qisqa, uzun, past, baland | *Balandlik, kuch, cho`zim, tembr |
| 86 | Dutor qaysi inter-valga sozlanadi | * Kvarta | Tertsiya | Kvinta | Sekunda |
| 87 | Nota belgilari besh parallel chi-ziqli tizimining qayerlariga joylashtiriladi? | Birinchi chi-ziqning ostiga va beshinchi chiziqning ustiga | * Chiziqlarga va chiziqlar orala-riga | Qo`shimcha chiziqlariga | Barcha javoblar to`g`ri |
| 88 | G`ijjakda nechta tor bor? | 3 | 5 | 6 | * 4 |
| 89 | Navro`zi ajam kuyi qaysi o`l-chamda yozilgan? | * C | 3/4 | 6/8 | 2/4 |
| 90 | Navro`zi ajam kuyi qaysi notadan boshlangan | Sol ikkinchi oktava | * Sol birinchi oktava | Sol kichik oktava | Sol katta oktava |
| 91 | Tovushlarni yozish uchun qo`llaniladigan maxsus belgi ? | * Nota | Alt kalit | Pauza | Nota yo`li |
| 92 | Yettinchi bosqi-chi sol diyezga o`zgargan minor gammasi nomi? | Lya major | Do major | * garmonik lya minor | melodik lya minor |
| 93 | Nota yo'lining chiziqlari qanday tartibda sanaladi? | Yuqoridan pastga qarab | Avval chiziqlar orasi, keyin chiziqlarni o`zi sanaladi | *Pastdan yuqoriga qarab | Qo`shimcha chiziqlar bilan birga sanaladi |
| 94 | Tovush cho`zimi-ni yarim baravar uzaytiruvchi belgi | Ikkita nuqtali nota | * Nuqtali nota | Liga | Fermato |
| 95 | Doira qaysi cholg`u turiga kiradi | Chertib chalinadigan musiqa asbobi | *Urma musiqa cholg`usi | Kamonchali cholg`iu sozi | Tirnab chalinadigan cholg`u sozi |
| 96 | Yangi tanovor kuyi qaysi cho`-zimli notadan boshlangan | Choraktalik | Butun | O`n oltitalik | * Nuqtali nim-choraktalik |
| 97 | O'lchov nima? | Musiqa asarining bir kuchli hissadan, navbatdagi kuchli hissasigacha bo'lgan oralig'i | *Metr hissalarining ma'lum bir cho'zimda ifodalanishi | Kuchli va kuchsiz hissalarning bir tekisda takrorlanib turishi | Kuchli hissadan boshlangan takt |
| 98 | Qari Navo kimning kuyi? | M.Mirzayev kuyi | *O`zbek xalq kuyi | R.Tursunov kuyi | D.Zokirov kuyi |
| 99 | Oddiy intervallar deb qaysi intervallarga aytiladi? | Oralig`i oktavadan keng intervallarga | Besh pog`onadan iborat intervallarga | *Bir oktava oralig`idagi intervallarga | To`qqiz pog`onadan iborat intervallarga |
| 100 | Zavqim kelur ku-yining bastakorini belgilang | H.Rahimov | * M.Mirzayev | D.Zokirov | R.Tursunov |
| 101 | Yuqorilama hara-katda 6- | * | | | |



| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | 7-bosqichlari do diyez, re diyez bolgan minor gammasining nomi? | melodik mi minor | garmonik mi minor | Sol major | Mi major |
| 102 | As bo`laman kuyining o`lcho-vini belgilang | 3/4 | 4/4 | 2/4 | * 6/8 |
| 103 | O`zbek xalq kuyini belgilang? | Ko`rmadim | * Dilxiroj | Bahor valsi | Raqqosasidan |
| 104 | Qanday ladga tabiiy minor ladi deyiladi? | Turg'un tovushlari uchta tovushdan iborat bo'lib, major uchtovushligini hosil qilgan besh pog`onali lad | Turg'un tovushlari uchta tovushdan iborat bo'lib, minor uchtovushligini hosil qilgan besh pog`onali lad | *Turg'un tovushlari uchta tovushdan iborat bo'lib, minor uchtovushligini hosil qilgan yetti pog`onali lad | Turg'un tovushlari uchta tovushdan iborat bo'lib, major uchtovushligini hosil qilgan yetti pog`onali lad |
| 105 | Aralash o`lchovni begillang? | Bitta zarbga ega bo'lgan ikki va uch hissali o'lchovlarga | Bir xildagi oddiy o`lchovlarni qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan o`lchovlarga | Har bir hissasi yarimtalik nota cho'zimiga teng ikki hissali o'lchovga | *Har xil oddiy o`lchovlarni qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan o`lchovlarga |
| 106 | Murakkab o`lchovni begillang? | Har xil oddiy o`lchovlarni qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan o`lchovlarga | Bitta zarbga ega bo'lgan ikki va uch hissali o'lchovlarga | *Bir xildagi oddiy o`lchovlarni qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan o`lchovlarga | Har bir hissasi yarimtalik nota cho'zimiga teng ikki hissali o'lchovga |
| 107 | O`zbek xalq kuyini belgilang? | * Qo`shchinor | Ko`rmadim | Bahor valsi | Raqqosasidan |
| 108 | Oddiy o'lchovni begillang? | Zarblari har bir hissadan keyin takrorlanib turuvchi o'lchov | Zarblari har ikki hissadan keyin takrorlanib turuvchi o'lchov | *Bitta zarbga ega bo'lgan ikki va uch hissali o'lchovlar | Har bir hissasi yarimtalik nota cho'zimiga teng ikki hissali o'lchov |
| 109 | Eng qisqa cho`zimni belgilang | Butun | Yarimtalik | Nimchorak | * O`n oltitalik |
| 110 | Sharob kuyi qaysi notadan boshlan-gan | * Si | Do | Lya | Mi |
| 111 | Ritm va metr zarblarining bir – biriga to'g'ri kelmay qolishi | Ritenuta | Repriza | * Sinkopa | Metr |
| 112 | Dinamik belgini belgilang | * Kreshchendo | Pauza | Diyez | Nimchorak |
| 113 | Bastakor Sh. Yor matov bastalagan musiqa? | * O`n beshtamiz besh oldik | Do`ppi tikdim | Vatanginam | Yomgir yog`o`loq |
| 114 | Musiqa asarining bir kuchli hissa-dan, navbatdagi kuchli hissasiga-cha bo'lgan oralig'i | * Takt | Zatakt | Zarb | Interval |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 115 | Segna belgisining vazifasi | Nota yozuvini qishqartiradi | Nota yozuvini orttiradi | Nota yozuvi-ni cho`zadi | To`g`ri javob yo`q |
| 116 | G`ayratli qiz ku-yining o`lchovi | 4/4 | 2/4 | * 6/8 | 3/4 |
| 117 | Zarb nima? | Aktsent tushadigan hissa | Aktsent tushmaydigan hissa | *Tovushning ajralib, aktsent bilan eshitilishi | Kuchli hissadan boshlangan takt |
| 118 | Tabiiy minor gammasi qanday tartibda tuziladi? | Ton-ton- 0,5 ton-ton-ton-0,5 ton-ton tizimi bo'yicha | *Ton- 0,5 ton-ton-ton-0,5 ton-ton-ton tizimi bo'yicha | Ton- 0,5 ton- ton-ton-0,5 ton-1,5 ton-0,5 ton tizimi bo'yicha | Ton-ton- 0,5 ton- ton-ton-ton-0,5 ton tizimi bo'yicha |
| 119 | "Es" durda qancha kalit belgisi bor? | 3ta diyez | 1ta diyez | * 3ta bemol | 2ta bemol |
| 120 | Quyidagi kuyning nomini belgilang | Intizor etma | * Chamanda gul | Do`ppi tikdim | Dil kuylasin |
| 121 | To'rtinchi chiziqda joylashgan *fa* kaliti qanday ataladi? | Soprano kaliti | Al`t kaliti | * Bas kaliti | Skripka kaliti |
| 122 | Uyg`urcha raqs kuyining nomi | Qashqarcha | Diyor madhi | * Otush | Gulnoz |
| 123 | Tez sur'atni belgilang | * Prestissimo | Adajio | Moderato | Crave |
| 124 | Tovush cho'zimini uzaytirish qanday ifodalanadi? | Al`teratsiya belgilari bilan | Dinamik belgilar bilan | *Tovush cho'zimini uzaytiruvchi qo'shimcha belgilar bilan | Har xil tovush cho`zimlari bilan |
| 125 | Takrorlash belgisini belgilang | piano | * repriza | pauza | sinkopa |
| 126 | Alteratsiya belgisini belgilang | * Dubl diyez | pauza | Ikkita forte | Trel |
| 127 | Mediator nima uchun ishlatiladi? | Biron-bir cholg`u sozida kuy chalish uchun | * Tovush hosil qilish uchun | Dutor chalish uchun | G`ijjak chalish uchun |
| 128 | Qaysi cholg`u sozi kamon bilan chalinadi? | Rubob | * G`ijjak | Doira | Chang |
| 129 | M.Mirzayevningmusiqasin i nomini belgilang | * Dil kuylasin | Dugonalar | Saboh | Navro`zi ajam |
| 130 | Uch hissali o'lchov nima? | Zarblari har bir hissadan keyin takrorlanib turuvchi o'lchov | *Zarblari har ikki hissadan keyin takrorlanib turuvchi o'lchov | Bitta zarbga ega bo'lgan ikki va uch hissali o'lchovlar | Har bir hissasi yarimtalik nota cho'zi-miga teng ikki hissali o'lchov |



| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 131 | Yarimtalik pauzani belgilang | 1-chiziq pastida | * 3-chiziq ustida | 2- chiziq orasida | 4-chiziq pastida |
| 132 | Kuyning sur'ati qaysi jabobda to`g`ri ko`rsatilgan | * Moderato | Messo forte | Repriza | Pedal |
| 133 | Kulcha non kuyining bastakori kim? | M.Burxanov | * I.Hamroyev | G`.Qodirov | Yu.Rajabiy |
| 134 | Unison nima? | Tovushlarni ansambl ijrosida jaranglashi | Tovushlarni xor ijrosida jaranglashi | Tovushlarni orkestr ijrosida jaranglashi | *Bir xil balandlikdagi tovushni ikki yoki bir necha ovoz bilan bir vaqtda eshitilishi |
| 135 | Bastakor M.Leviyev musiqasini belgilang | Raqqosasidan | * Ohangaron | Intizor etma | Sayri gullar |
| 136 | Yarim ton nima? | Ikkita tovushning oralig`i | Yarim notaga teng oraliq | *Ikkita tovushning eng yaqin oralig`i | Ikkita tovushning eng uzoq oralig`i |
| 137 | Xromatik yarim va butun ton deb nimaga aytiladi? | Turlicha pog`onalardan tuzilgan yarim va butun tonlarga | *Bir pog`onaning o`zidan tuzilgan yarim va butun tonlarga | Balandligi bir xil, nomlari va yozilishi har xil yarim va butun tonlarga | Yonma-yon joylashgan ikkita pogona orasida hosil bo`lgan yarim va butun tonlarga |
| 138 | Gulnoz musiqasi-ning bastakorini belgilang | M. Leviyev | Tojik xalq kuyi | S.Yo`ldoshev | * M.Mirzayev |
| 139 | Yarim va butun tonlarning qan-day turlari bor? | Kuchli va kuchsiz | Qattiq va sekin | * Diatonik va xromatlk | Baland va past |
| 140 | Ortacha sur'atni belgilang | * Andante | Presto | Adajio | Allegro |

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. H.Nurmatov. Rubob darsligi. T. 1993.
2. A.Odilov. O'zbek xalq cholg'u ijrochiligi tarixi. T. 1995.
3. R.Qosimov An'anaviy rubob ijrochiligi. Toshkent, O'zbekiston 2000 y.
4. H.Nurmatov – Qashqar rubobi. Toshkent. 2003 y.
5.O'Toshmatov "Cholg'ushunoslik" Toshkent 2004.
6.B.Mirfayozov "Soz darsligi" Toshkent, G'afur G'ulom nashriyoti 2006.
7.M.Abdukarimov "Cholg'ushunoslik" Nasaf 2006.
8. R.Qosimov An'anaviy rubob ijrochiligi. Toshkent 2007 y.
9.Z.Turapov "Ansambl sinfi" Toshkent 2007.
10.O.Nazarov "Qashqar rubobida o'qitish uslubiyoti" Toshkent 2008.
11.A.Lutfullayev "Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti" Toshkent, Musiqa, 2010.
12.Sh.Rahimov, A.Lutfullayev "Cholg'ushunoslik" Toshkent, Musiqa, 2010.
13.O'.Toshmatov, S.Turatov "Ko'hna cholg'ular" Toshkent 2013.
14.S.Turatov "Xalq cholg'ularini o'rganish" Toshkent, 2015.
15.O.Miskinov "Rubob prima navolari" Toshkent, Musiqa, 2015.
16.Sh.Matyoqubov "An'anaviy ijrochilik san'ati tarixi" Toshkent, Musiqa, 2015.
17.M.G'ofurov "Cholg'u ijrochiligi" Toshkent 2015.
18.A.Tashmatova "Ijrochilik san'ati tarixi" Toshkent, Musiqa, 2017.
19. A.Mamadaliyev "Ansambl sinfi" Toshkent, Musiqa, 2017.
20.O.Abdullayeva "Cholg'ushunoslik" Toshkent, Musiqa, 2018.
21.O.Xakimov "Xalq cholg'ularida ijrochilik" Toshkent, Innovatsiya-Ziyo, 2020.
22.D.Meliboyev "Xalq cholg'ularida ijrochilik" Toshkent, Innovatsion rivojlanish nashriyoti-uyi 2021.
23.S.Ubaydulloyev "Sog'inganimda" Toshkent, Miron-art-design, 2022.



## MUNDARIJA

**Kirish** ........ 3
**Fanning mazmuni** ........ 4
**1-mashg'ulot: Cholg'u sozlarini o'rganish faniga kirish** ........ 9
**2-mashg'ulot: Qashqar rubobi tarixi** ........ 11
**3-mashg'ulot: Qashqar rubobni to'g'ri ushlash va ijro etish yo'llari** ........ 15
**4-mashg'ulot: Tovush hosil qilish va ohangdoshlik** ........ 18
**5-mashg'ulot: Shtrixlar, tovushlarni bir-birga bog'lash yo'llari** ........ 19
**6-mashg'ulot: Mashq, gamma va etyudlar ijrosi** ........ 22
**7-mashg'ulot: Kuylarni nota matniga qarab ijro qilish** ........ 36
**8-mashg'ulot: M.Mirzayev musiqasi "Yangi tanovar" asarini o'rgansh** ........ 40
**9-mashg'ulot: F.Nazarov asarlarini o'rganish** ........ 46
**10-mashg'ulot: S.Yudakov asarlarini o'rganish** ........ 52
**11-mashg'ulot: N.Norxo'jayev asarlarini o'rganish** ........ 59
**12-mashg'ulot: G'.Qodirov asarlarini o'rganish** ........ 65
**Talabalar mustaqil ishlashi ushun asarlar** ........ 72
**Glossariy** ........ 125
**Test savollari** ........ 131
**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati** ........ 140

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROV XOLMUROD ABDUJAFFOROVICH

# CHOLG‘U SOZLARINI O‘RGANISH

**O‘QUV QO‘LLANMA**

**Muharrir – Jamalov L.O.**
**Musahhih – Islomova H.S.**
**Texnik muharrir – Gulomov A.T.**

«Fan ziyosi» nashriyoti. Litsenziya № 3918

Nashriyot manzili: Toshkent shahar Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: pachaxanovich@mail.ru. +998933764407.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2023-yil
Bichimi 60x84 1/16 . «TimesNewRoman»
garniturada raqamli bosma usulda chop etildi.
Shartli bosma tabog‘i 9. Adadi 100. Buyurtma № 078

**“Fan va talim poligraf” MChJ bosmaxonasida chop etildi.**
Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 24-uy

ISBN 978-9943-5942-8-9
9 789943 594289